O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAN’AT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani
---------- K.M. Gulyamov
«-------» ----------2014 yil

«5140900-KASB TA’LIMI(5211200-AMALIY SAN’AT) YO‘NALISHI»
AS-401 GURUH TALABASI RAXMONOVA NILUFAR BOBOQUL QIZINING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O‘QUVCHILARGA NAQQOSHLIK KOMPOZITSIYALARINI TUZISHNING SAMARALI YO‘LLARINI O‘RGATISH

_____talaba N. Raxmonova
Ilmiy rahbar: «Amaliy sanat va uni o‘qitish metodikasi» kafedrasi mudiri,
prof._____S.S. Bulatov

Taqrizchi: dots. _____N. Tolipov

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Amaliy sanat va uni o‘qitish Metodikasi» kafedrasi mudiri,
Prof_____S.S. Bulatov
«_____» _____2014 yil

2014-йил

REJA

KIRISH

1 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA XALQ AMALIY SAN'ATINING O'QITILISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixi va uning rivojlanishi.

1.2. O'zbek xalq amaliy san'atini o'rgatishda ustoz-shogird an'analari va uning ahamiyati.

2. BOB. 2. BOB. KASB HUNAR KOLLEJLARIDA XALK AMALIY SAN'ATINI O'QITISH METODIKASI

2.1. Naqsh kompozitsiyalarni chizish orqali o'quvchilarning chizish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

2.2. Kasb-hunar kollejlarida amaliy san'at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

3. BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA AMALIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA TUZISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

1-ilova. O'zbekcha inglizcha terminlar.

2-ilova. Foto namunalar

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va allomalar binolarimizni kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar, kishilarni go‘zallik bilan yaqin do‘st, birodar bo‘lishga undaganlar. Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda «Alloh go‘zal va u go‘zallikni sevadi»,- deyiladi. Demak, islomning estetik nuqtai nazari go‘zallikka oshno bo‘lmoqliqdir. Alloh go‘zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne’matlari ham go‘zaldir. Ibrohim Haqqiy aytadi: «Mavlono, ko‘raylik, naylar, naylarsa go‘zal aylar. SHunga muvofiq, Allohning ism-sifatlarini vasf etuvchi so‘zlarimiz, uning qudratini tamsil etuvchi binolarimiz, me’morlik obidalarimiz, qo‘yingki, tangri irodasi, ism-sifati bilan bog‘liq bu olamda nimaiki narsa bo‘lsa, hammasi go‘zal bo‘lishi kerak. Arab imlosi, g‘azal, bitiklar, naqshlar, me’moriy obidalar, tasviriy san’atning islimiy-tilsimiy turlari eshitish va ko‘rish a’zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig‘iga o‘ralgan. Naqsh chodraga o‘ralgan ayolga o‘xshaydi. Naqsh – haqqoniyatni qo‘l bi-lan ushlab ko‘rish emas, go‘zallikning mohiyatini anglash, shu go‘zallikni didda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o‘zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...»[1].

Milliy naqshlarimiz g‘oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg‘u asboblari, uy – ro‘zg‘or buyumlaridan tortib turrar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o‘ylantiradi. Bu go‘zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me’morchilik hamda

[1] Ғафур Ғулом. Ибтидодаги ахд. Тафаккур журнали. 1994, № 1. Б. 53–54.

tasviriy san’at rivoji bilan bog‘langan holda takomillashib bordi. Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. Qush, hayvon, o‘simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado‘zlikda, zardo‘zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to‘qish, to‘qimachilik, inkurustatsiya, panjaralar va xokazolarda xar xil yo‘llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o‘yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san’ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlar qadimdan mavjud ekanligi bizga ma’lum bo‘ldi. CHunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va joylarda naqshning har xil turlarini ko‘rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o‘ziga xos muhitiga: geografik o‘rniga, o‘lkaning o‘simlik dunyosiga ko‘ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg‘iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o‘zbek halqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko‘rasiz. Evropada barroko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil devorlarda hukmron bo‘ldi. Bu esa o‘z – o‘zidan naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ta’sir etdi.

O‘zbekistonda territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Suxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (1-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlariorqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqala zallari monumental naqshlar bilan bezatilgandigi bizga ma’lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar xamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarini ko‘rib hayron bo‘ladi kishshi. Ularni birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urushi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko‘k ranglar bilan bo‘yab tasvirlangan. VII asrning VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoni arablar bosib olishi

natijasida qaror topgan islom dini o‘zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. YAngi din hamda yangi g‘oya O‘rta Osiyo tasviri san’atiga ta’sirini o‘tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. “Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va ko‘proq murosasiz yo‘l tuta borib, qat’iy ravishda shunday der edi: “Tangri yoki odomzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks xolda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo‘ladi”, deb qo‘rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma’nosi shundaki, xudodan boshqa xech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirish ham mumkin emas va bu uning qo‘lidan kelmaydi, aks holda mussavir Xudo bilan bahs boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi.

Islom talabaliriga bo‘ysinish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafiya) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo – afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san’at rivojlanmaydi. Buning hisobiga amaliy bezak san’sati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX-X asrlar O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlanadi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch – naqshlar bilan juda nafis bezatildi. Naqsh murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbix va boshqalar naqadar mo‘lligini ko‘ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo‘layotgan voqealiklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o‘ziga xos ma’no bo‘lgan. CHunonchi, o‘simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, “pechak islimiy” naqsh boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to‘kinchilik hamda bahor chog‘ida uyg‘onishni bildiradi. Mussavirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo‘lgan muxabbatini bildiradi. Uning ranglari o‘ziga xos ma’no va xarakterga ega. Naqsh o‘zbek madaniyatining xamma bosqichlarida hamohang bo‘lib kelgan. Eng oddiy

prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg‘unlik, yo‘sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e’tibor berib, uning tabiiyligini yo‘qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma’lum ramziy ma’no singdiriladi. XI–XII asrlarda O‘zbekiston teritoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko‘p ishlatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Kasb-hunar kollejlarida O‘quvchilarga naqqoshlik kompozitsiyalarini tuzishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: Kasb-hunar kollejlarida Amaliy san’at mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Kasb-hunar kollejlarida Amaliy san’at mashg‘ulotlarini mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

• Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarning Amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash;

• o‘quvchilarning Amaliy san’atga kompozitsiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

• Kasb-hunar kollejlarida Amaliy san’at darslarida zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish;

• Kasb-hunar kollejlarida xalq amaliy san’at darslarida kompozitsiya tuzishning zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “ Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar va xalq ta’limi vazirliklarining qarorlari, ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Badiy akademiyasi o‘zbek xalq amaliy san’atiga oid hukumatning qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar, o‘zbek xalq amaliy san’atining milliy an’analari, buyuk olim va pedagoglar, sharq mutafakkirlarining badiy ta’lim-tarbiya haqidagi fikirlari tashkil etadi.

1 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA XALQ AMALIY SAN'ATINING O'QITILISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixi va uning rivojlanishi.

Buyuk maqsadlar sari dadil qadam tashlayotgan O'zbekiston Respublikasida jamiyani yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ma'naviyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbus va say-harakatlari bilan xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Markaziy Osiyo san'ati qadimiyligi, boy madaniyati bilan dunyoga mashhurdir. Uning zaminida qad ko'targan va tuproq osti qatlamlari orasidan topilayotgan tarixiy qazilma yodgorliklari o'ziga xos ulkan bir muzeyni tashkil qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san'ati o'tmish avlodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, teran mazmunli, barkamol va tarixning yuqori badiiy qiymatli madaniyat yodgorligi namunasi sifatida xalqimizning, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy ma'naviy merosni tashkil etadi.

Amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bulgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoklar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. SHuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol

vositalardir. Amaliy san’atda narsalarning nafisliligiga ikki usul bilan erishiladi: 1) shakli oddiy, jo‘n buyumlarga bezak ishlab baliiy qimmati oshiriladi; 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o‘ynaydi. Xomashyoning go‘zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta’sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta’sirchan mazmunli shakllar ko‘pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo‘layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta’sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san’at asariga aylanadi. Amaliy san’atda bezak yaratishda *naqsh* bilan *tasviriy sanat* (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo‘llaniladi. Ba’zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to‘r; gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san’at asarining uyg‘unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o‘zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo‘ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko‘lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg‘unlashtirishning zarurligi tasviriy bo‘laklarni o‘zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o‘xshatib yaratishga olib keladi. 19-asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san’at asarlari foydalanilgan xomashyosi (yog‘och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo‘yash, o‘yib-kesib ishlash, qo‘yish, kashta tikish, to‘qish va boshqalarga)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o‘z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash *(dizayn)* va uni ishlab chiqarish bilann bog‘lanishi *(badiiy sanoat)*ga zamin yaratdi. Amaliy san’at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo‘lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san’ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq yashagan joyning jug‘rofiy sharoiti, xalqining mashg‘uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo‘shni xalqlar bilan aloqalari va boshqalar muhim rol o‘ynagan. *Kulollikka* yaraydigan tuproq mavjud joylarda kulollik, chorvachilik rivoj topgan erlarda jundan mato to‘qish, *mo‘ynado‘zlik*,

kigiz bosish, *gilamchilik* va shu kabilar rivojlangan, amaliy san’at asarlarining ma’lum joyga xos uslublari shakllangan.

Eneolid va jez davrida yaratilgan jez, oltin, kumush, taqinchoqlar (bilakuzuk, uzuk, shokila, shokildor munchoqlar bezaklar kuzgu bezanish buyumlari) sodda shakli bo‘lib, gulsiz yoki kesma chiziqli xalqasimon ramziy naqshlar bilan ishlangan. Miloddan avvalgi 3 ming yillikda boshlab taqinchoqlar chig‘anoq va qimmat baho toshlardan yasalgan. Feruza, va lojuvard, aqiq, nifretdan turli shakl munchoq, tunoqich, shokli va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Suh qishlog‘idan topilgan qora toshdan ishlangan tumor (milloddan avvalgi 2 ming yillik) tosh taroshlarning yuksak maxoratidan darak beradi: taqasimon shakl markazida bir-biriga ro‘para turgan ikki ilonning boshi aniq ko‘rinib turibdi; bir-biriga tirmashib ketgan ularning tanasi mustaxkam asosda turgan toqi xosil qilgan. Bu tumordagi juft ilon tasviri xosildorlik va serpushtlilik, qadama oq “ko‘zlar” ilonlar terisiga olabulalik baxsh etgan hamda ko‘z tegishidan, kasalliklardan asrashaga xizmat qilgan.

Temir asri (mil. av. 1-ming yillik)ga oid oltin, kumush, bronza suyak va yog‘ochdan yasalgan turli jang qurollari, uy anjon va zebu-ziynat buyumlarda “hayvonlarni tasvirlash uslubi” uning o‘ziga xos na’munalari paydo bo‘ldi; tasvirlanayotgan hayvonlarning asosiy xususiyatlari ularning xolati murakkab mujassamotga bo‘ysintirilgan.

Ahomoniylar davr san’ati (mil. av. XI-IV asrlar)ning xususiyatlarini amudaryo xazinasidagi buyumlar ochib beradi. Buyumlarning ma’lum qismi maxalliy ustalar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, zargarlik san’atini baqtriya badiiy maktabi mavjudligi ko‘rsatadi. Uchlariga bir-biriga ro‘para turgan xolatda ishlangan nafis haykalcha (sher, qo‘y, arxar, grifon)lar feruza ko‘zlar qadalgan tilla bilakuzuklar shom Baqtiryada yaratilgan bo‘lishi mumkin. Ularning obroz echimi, shakli, ijro usuli zaminida baqtirya, sak va o‘rta nafis hamda nozik bo‘lgan axamoniylar san’ati an’analari yotadi. Plastinkalardek tasvirlangan antrapologik tiplar va uning kiymlari buyumlarning maxalliy xususiyatini ko‘rsatadi. Amaliy san’ati bezashni kuchaytirishga qaratilgan etakchi an’analar bilan birga boshqa an’anaviy

yo‘nalishlar (mos., hayvonlarni tasvirlash usuli) ham davom etdi. Turlicha umumlashmalar tizimi o‘ziga xos shartligi saqlanib qoldi. SHuning uchun bu davrga oid asarlarga tabiiy shakllarga yaqinlikda (“mifologik realizm” uslubi) to uslublashtirish va naqsh bezak xususiyatlarning ustunligiga bo‘lgan turlicha tasvirlash usullarini ko‘rish mumkin.

Keyingi tarixiy davr (miloddan avvalgi III-acr mil. III-asr) badiiy madaniyatning gullagan davri bo‘lib, amaliy bezak san’atiga keskin o‘zgarishlarni kiritdi. Bu davrda usullar ellinistik (ayniqsa, yunon-baqtirya podsholigi davri) va hind (gandxara san’ati) an’analarini o‘zlashtirdi. Muxr va tangalarda YUnon – baqtirya shoxlarini tasvirlashda inson ruhiy olamini ochishga harakat qilingan. Uslubning keyingi (mil. av. I-asr mil. I-asr) rivoji umumlashtirish, cheksiz xokimlik g‘oyasini ifodalovchi shoxlar, mabudalarning umulashma obrozlarini yaratish yo‘lidan bordi. Zargarlik buyumlardan xushondan topilgan I-asrga oid 3ta silliq nayzani qalaylab markaziga gerakil tasviri ishlangan aniq o‘rnatilgan to‘rt burchak turumchilik pektural diqqatga sazovor. Bunda baqtryalik usta oltining yorqin va sokin jilosining, uning mayin qiyofasi bilan inson shakli mos tushishi ko‘rsatuvchi metall va shaklning ajoyib uyg‘unliginin topib bera olgan. Bo‘rtma gulli mazmunli sahnalar va murakkab mujassamot bilan kelib chiqishi ellenistik an’analariga borib taqalgan I-II asr metall va sopol idishlarga kushonlik usta o‘ziga xos maxalliy xususiyatlarini kiritgan.

Sopol haykalchalar yaasash san’ati keng taraqiy etdi. Ma’budlarning maxalliy etnik belgilari bo‘lgan an’anaviy qiyofalari yaratildi. Ular ro‘paradan qat’iy holatda hissiz yuzli qilib suyak yoki xorazim kiyimlarida tasvirlangan. Sopol idishlar ishlab chiqarishda yuksak mukamalikka erishgan. Gulsiz yoki gulli (xandasiy naqishlar etakchi o‘rin egalagan) nozik qadahlar, kosa, piyola, ko‘za va buyum idishlar sodda, ifodali shakilda tayyorlangan. SHishadan buyumlar tayyorlangan, suyakdan ishlangan fil va boshqa hayvonlar ko‘rinishidagi shaxmat donalar saqlangan. Amaliy san’atning ayrim turlari baqtriya san’ati bilan turli darajada uyg‘unlashib ketgan kndxar san’ati ellinizim va sak an’analari xususiyatlari ko‘zga tashlangan. Unga hayotning o‘zi va marfologik asosiy mabuda bo‘lgan. Bu san’at uslubiy yo‘nalishi jihatdan xilma-xil tasvirlashda hayotiy haqiqatga yaqin shuningdek afsonaviy

mavzularga asoslangan shakilarga ega. SHu davrga oid zargarlik san’ati haqida dalvarzintepa hazinasi buyumlari katta ma’lumot beradi.

Ilk O‘rta V-VIII asrda amaliy san’atga yangi mazmun va shaklni talab etadigan g‘oyalar kirib keldi, bu sohada yangi uslubiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Kandakorlikda oltin, kumush, jezdan turli shakldagi kosa, lagan, ko‘za, qozon, chiroqdon va boshqa idishlar tayyorlandi. Ular xayotiy lavhalar, epik va afsonaviy mazmunlar (ov, to‘y, raqqosalar, jangchilar kurashi), durlar halqasi ichida ishlangan hayvonlar tasviri bo‘lgan turli mujassamotlar bilan bezatildi. Tasvir uslubida qadimgi san’at xususiyatlari yo‘qolib bordi, shakllar qat’iy bo‘lib, ularning nisbati o‘zgardi, umumlashtirish kuchaydi. Teriga badiiy ishlov berish san’atining mavjudligi haqida qurollangan chavandoz tasviri tushirilgan bo‘yama naqshli charm bilan qoplangan qalqon (VIII asr) guvohlik beradi. SHu davrda to‘qimachilik ham rivojlandi. Ip ipakdan turli matolar tayyorlangan, zarli parcha matolar ishlangan, ayniqsa, murakkab gulli rangdor to‘qilishli zandonachi (VII - IX asr) nomli nafis mato mashhur bo‘lgan. Zandonachi matosida gullar taqsimli bo‘lib, yirik durlar halqasi bilan hoshiyalangan aylana va boshqa shakldagi turunjlar bir maromda takrorlanadi. Turunjlarda ko‘pincha bir-biriga ro‘para turgan juft sher, qo‘y, fil va boshqalarning qat’iy tantanali holatdagi tasvirlari berilgan. Ularning tanasi va tana bo‘laklari naqshlar bilan ishlab chiqilgan. Mayda shakllar haykaltaroshligi 2 yo‘nalishda taraqqiy etadi: bir tomonda ma’bud va qahramonlar obrozlarini risoladagidek berish, ikkinchi tomonda jonli hayotiy kuzatishlarni, turli halqlarning etnik xususiyatlari, - sug’diy va turkiylarning turli davrdagi o‘ziga xos kiyimlarida tasvirlash davom etdi. Avval bo‘lganidek ma’budlar shakli ro‘paradan va qat’iy qilib yaratilgan, biroq idishlar va ostadonlarda inson tasvirini ehtirosli va jo‘shqin berish hollari uchraydi. V-X acrlarda loydan to‘rtburchak, uzunchoq va boshqa shakllarda ishlangan ostadonlar keng tarqalgan, shakl jihatdan ustunlar va toqinlar, “uy” yoki “ibodatxona”ni eslatuvchi ostadonlar o‘ta hashamdorligi va ramziy naqshlarga boyligi bilan ajralib turgan. Rangli bo‘yama naqshli ostadonlarda motam lavhalari xalq san’atining sodda usulida ishlangan. Sopol idishlar tayyorlash rivojlandi, uning shakli va xajmi boyidi, bu sohada mahorat ortdi. Mayin shaklli, nisbatlarga amal

qilingan ifodali nozik hajmli idishlar tayyorlandi. V-VIII asrlarda sirlanmagan, bezaksiz va bosma, chizma, o‘yma va qadama usulida odam, hayvon, o‘simliklarning bo‘rtma tasvirlari ishlangan sopol buyumlar ishlandi. Keyinchalik ularni bezash uslubi o‘zgardi: naqsh mujassamoti islimiy, handasiy, hayvon shakllari va yozuvli naqshlar bilan to‘ldirilgan yo‘llar, belboq, hoshiya, turunjlarga aniq bo‘lindi. Sirlashning keng ishlatilishi (VIII asr oxiridan) kulolchilik taraqqiyoti uchun badiiy imkoniyatlarni ochib berdi va bo‘yama sopol san’atining gullab-yashnashini ta’minladi (IX-asrdan boshlab). VIII–XIII asrlarda amaliy bezak san’ati yo‘nalishlari (ayniqsa, yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik)ga islom dini estetikasi katta ta’sir qildi. Zargarli san’atida davrning asosiy uslubini ifodalovchi g‘oyaviy birlik, barqarorlik kabi yangi an’analar ko‘zga tashlandi. Oltin, kumush va jezdan to‘g‘ri handasiy shaklli taqinchoqlar ishlangan: oltin qirrali prizma yoki silindr shaklli chetlari kubbali tumorlar; konussimon shokilalar, uyachalariga o‘simlik va buyum mavzuli tasvirlar ishlangan, shuningdek, ezgu tilakli yozuvlar bitilgan mujassamoti aniq handasiy qismlarga bo‘lingan gumbazli, konussimon uzunchoq va ko‘p qirrali munchoqlar va buyum keyingi uslubiy rivojlanish shakl va naqshning ko‘proq ifodali bezagini topishga yo‘naltirildi. Ustalar ishlarida chaqnoq va qimmatbaho toshlar – la’li, safsar, yoqut, feruza, lojuvard, toq billuri, nefrit va boshqalarni qo‘llagan. IX–XIII asrlarda diniy marosimlarda chiroqdon va isiriqdonlarni yoqishga xizmat qiladigan xonaki sopol o‘choqlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Ularning shakli (ayniqsa taqasimon yoni, bezatilgan tarzi) me’moriy qismlarni eslatadi. O‘ta bezatilgan o‘choqlar mujassamotning asosiy qismlarini ustun, asos, friz, toqi kabi me’moriy bo‘laklar tashkil qilgan, ular orasiga qush, o‘simlik tasvirlari, ilohiy belgilar joylashtirilgan. VI–XIII asrlarda rangli (qizil, pushti, sariq, binafsha, ko‘k, yashil) va rangsiz oshxona va kimyo shisha idishlari (ko‘zacha, flakonlar, qadah, stakan, lagancha, siyohdon) tayyorlangan. Ko‘pincha ular bo‘rtma naqsh, bosma chizma va o‘yma usulida handasiy, o‘simliksimon gullar, hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Medal’onlarda odam, qush, hayvonlar tasvirlangan, rang-barang kuzli, gulli va hoshiya yo‘llar o‘zaro chirmashib ketgan munchoqlar tayyorlangan.

YOg‘och o‘ymakorligining yuksak taraqqiyotidan darak beruvchi binolardagi ustun, eshik, karniz, to‘sinlarga ishlangan nafis, chuqur bo‘rtma gullar, islimiy va handasiy naqshlar, ba’zan ular orasiga kiritilgan odam, hayvon, qushlar tasviri mohirona bajarilgan. Suyakdan shaxmat donalari va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Sopolli idishlar tayyorlashda dastlab silliq yuzali yoki bo‘rtma gulli buyumlar rangli sir bilan qoplangan, keyinroq rasm paydo bo‘ldi, rangi va bo‘yama naqshi borasida, kulollarning estetik didi va mahoratini ifodalovchi nafis ishlangan rasm va yozuv shakli ishlab chiqilgan. Dastlab gullar sipolga va qat’iyligi bilan ajralib turgan (masalan, laganning oq zaminida butunlay yoki cheti bo‘ylab qora kufiy yozuv qatori yoki nafis qora qizil naqsh joylashgan). XI–XIII acrlarda naqsh mujassamoti murakkablashdi va bezak hamohangligi yaratildi. CHiziqlarning har xil shaklli turunjlar hosil qilishi, ularning islimiy, handasiy naqshlar, hayvon tasvirlari va yozuvlar bilan to‘ldirilishi ortdi. Temuriylar davri (XIV-XV asrlar)da amaliy bezak san’atining yuksak taraqqiyoti mahalliy an’analar bilan bir qatorda O‘rta sharq badiiy yutuqlariga ham asoslandi. Izlanishlar asosan bezak naqshlar sohasida olib borildi. Bezakda o‘simlik-gul mavzulari, “girih” handasiy naqshlari, yozuvli namoyonlar etakchilik qildi. Yog‘och ustunlar va eshiklarning naqsh mujassamoti maydon, belboq, hoshiya kabilarga mutanosib bo‘linib, o‘yma gullar – egiluvchi novdalar va gulli butalar bilan bezatildi. Marmar qabrtoshlari egiluvchan butalar o‘ramidagi o‘ta nafis yozuvlar bilan qoplandi. “Girih” ko‘rinishidagi handasiy naqshlar yog‘ochlardan yig‘ilgan sag‘analar, yog‘och va marmar panjaralarda mahorat bilan ishlandi. XV-asr kulolchiligida “kobalt” turidagi (kum-kuk tusdagi) Xitoy chinnisi ta’sirida yangi bezash usuli shakllandi, ko‘proq oq-ko‘k sir ishlandi. Tanga, glaptika, metall o‘ymakorligi (muhr)da husnixat hukmronlik qilgan.

Kulollikda rangli va bir rangda ishlangan bo‘yama naqshlar saqlanib qoldi: qat’iy sovuq rangli moviy zaminga qora naqsh, oq zaminga ko‘k naqshlar ishlandi. Koshindagi bezak chiziqlarining mayin va o‘quvchanligi bilan farq qiluvchi nafis ko‘k-yashil bo‘yama naqshlar bilan hamohang bo‘lgan bilinar-bilinmas bo‘rtma gulli chiroyli idishlar yaratilishi ustalarning katta yutug‘i bo‘ldi. Naqshlarda o‘simlik, hayvon va osmon jisimlari mazmuni uyg‘unlashgan. Koshindan yasalgan idishlarga

moviy bo‘yama naqshlar ranglarning ifodali o‘yinini hosil qiluvchi yorqin va nafis dog‘lar bilan ishlangan: qushlar o‘tirgan shoh va butoqlar, gul va mevalar tasvirlari lagan va kosalarning oq zaminida erkin joylashtirilgan, bo‘yama naqshlar tabiatning lirik obrazini ifodalagan. XVI-XVII-asr kulolchiligida naqshlar quyuqlashdi, guli maydalashdi. XIV-asrlarda ustalar rangli shishalardan va rang-barang gulli uzuklar, bilaguzuklar, shokila va munchoqni yasashni davom ettirdilar. Oltin, kumush, jez, misdan turli shakldagi qadah, ko‘za, patnislar tayyorlanib, kandakori, chizma, o‘yma yoki qadama (oltin va kumushdan) nafis gullar bilan bezatildi. Aslzodalar uchun rangli shisha va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ot abzallari va qurollar, shuningdek, zargarlik buyumlar (marjon, uzuk, bilaguzuk, shokillar), zardo‘zi kiyimlar, so‘zana, dorpech, yostiq jildi kabi uy jihozlari tayyorlandi. XVI-XVII asrlarda O‘zbekistonning hunarmandchilik markazlarida ipak, ip, ko‘p matolar (atlas, kimxob, zandonachi, bahmal, bo‘z, chit, shohi) va tayyor buyumlar (ro‘mol, salla va boshqalar) ishlab chiqarildi. Rang-barang va zarhallangan islimiy naqshlar, qushlar tasviri bilan bezatilgan o‘rdak shaklidagi egarlar yasaldi. XIV-XV-asrlardan oldin shakllangan naqsh uslubi yanada taraqqiy etdi. Buyumlar shakli, unga uyg‘un holda bo‘linishi va berk handasiy maydon, hoshiya, yo‘l, turunjlarga bo‘ysundirilgan o‘simlik va yozuvli naqsh mujassamoti ularga uzluksiz harakat, kuch, cheksizlik, barqaror sokinlik hissini baxsh etish bilan birga hayot jo‘shqinligi, abadiyligi va go‘zalligini yaratdi.

Barcha davrlarda bo‘lganidek, XIV-XVII asr amaliy bezak san’atida 2 oqim – rasmiy va xalq san’ati mavjud edi. XVIII-XIX asrlarda ham xalq san’ati birmuncha erkin, hayotga yaqinroq edi. XVIII asrlardagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy bezak san’ati sekin rivojlandi, biroq u o‘zining asosiy hayotiylik mazmunini va ip matolar ishlab chiqaradi. Pakchilik, gilamchilik, palos to‘qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och, metallga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. Ommaviy buyumlar shakli ixcham va nafis bo‘lib, ularning bezagida alohida egiluvchan chiziqlarning o‘lvchamligi bilan berilgan gullagan bog’ mavzulari etakchi o‘rin tutdi.

Andijon, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Xiva, Toshkent va boshqalar to‘qimachilik markazlarida gulsiz va murakkab gulli ip, ipak, nimshoyi, jun matolar tayyorlandi. Go‘zalligi va iqlimga moslanganligi bilan qirmizi rangli matolar ajralib turgan; qirmizi rangi xosil qilishi uchun mato bir oy davomida o‘nlab jarayonlardan o‘tkazilgan. Bu matolardan tayyorlangan buyumlar (dar parda, dastirxon, ko‘rpa avra, bug‘jjoma va boshqalar)da taqsimli va markaziy mujassamotlarga joylashtirilgan chiroyli serhasham gulli mavzular etakchi o‘rin tutgan. Yo‘l-yo‘l nimshoyi “olacha”, “yo‘l-yo‘l” zar va kumush gulli parcha va boshqa matolar to‘qilgan. Ipakdan parcha, atlas, shohi, bahman matolar tayyorlangan. Abr bandi usulida tayyorlangan abr gulli matolar o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ularning sho‘xchan ranglardagi ajoyib guli orasidan daraxtlar, shox-butoqlar, gullar, mevalar va boshqalarning tasvirlarini ilg‘ab olish mumkin, bo‘yash usuli tufayli nayza shakli va mayin o‘quvchan istiroq chiziqli rang dog‘larining tasirchan uyini yaratilgan. Ranglardagi ana shunday tasviriy uyg‘unlik shaxrisabzning yo‘rma chokda tikilgan nafis gulli ipak so‘zanalariga ham mos, rangdor do‘ppilar ham ziynatli qilib tikilgan. Bayroqlar va xarbiy belgilar tikilgan kashtalar ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi zardo‘zlik markazlarida aslzodalar uchun bosh kiyimlar, to‘nlar, yostiq jildlari va boshqa buyumlar tayyorlangan.

CHarmga badiiy ishlov berish sohasida rangli charmdan bezatilgan kitob muqovalari va qog‘oz uchun jildlar tayyorlangan, ular o‘ta mahorat bilan bosma usulida ishlangan oltin yoki kumush bilan qoplangan. Ko‘pincha yozuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan bezak mujassamoti keng tarqalgan. Rangli metallar (jez, qizil va sariq mis)dan tayyorlangan ro‘zg‘or buyumlari ham shu usulda bezatilgan. Ko‘za, barkash, choynak, kosalar mayda chirmoviqsimon islimiy gullar bilan qoplangan, ba’zan ularga she’riy yozuvlar, matallar mohirona joylashtirilgan.

Kandakorlik san’ati markazlarida yaratilgan buyumlarda mahalliy o‘ziga xoslik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Samarqandlik ustalar sayozroq bo‘rtma hosil qilib nafis naqshlar yaratdi. Buxoroning kandakori rasmlari tekis bo‘rtmali chizma usulida yaratildi. Buxorolik ustalardan Usta SHokir (XVIII-asr boshi), Usta Baratboy va SHodi Muhammad (XVIII-asr oxiri – XIX-asr boshlari) ishlari saqlanib qolgan.

An’anaviy shakllardagi chiroyli idishlar (lagan, kosa, ko‘za va boshqalar)ning oq zamindagi ko‘k, feruza, yashil, pushti ranglari soflik va salqinlik hissi bilan to‘lgan. Zargarlar tomonidan toj, ayollarning peshona bezaklari, tilla marjonlar, uzuklar, tilla va kumushdan har xil toshlar (la’l, feruza, lojuvard, zumrad, nefrit, aqiq va boshqa) qadab shokilali ziraklar yasaldi. CHiroyli bezatilgan ot abzallari va qurollar tayyorlandi, tilla va kumushdan ishlangan pichoq qinlari nafis islimiy naqshlar bilan bosma usulida bezatildi, suyak va nefritli pichoq dastalari bo‘rtma rangli toshlar bilan to‘ldirilib naqshlandi yoki shabaka naqshlarga feruza ko‘zlar qadab bezatildi. Gliptika yuqori mahorat darajasini saqlab qoldi. Muhrlar va zargarlik bezaklari asosan aniq va boshqa rangli toshlardan ishlandi. Badiiy ifodalilikka shaklning (dumaloq, cho‘zinchoq, serqirra, shakldor) go‘zalligi va naqshin husnixat yozuvlarining mohirlik bilan joylashtirilishi orqali erishildi. XVIII-asr oxirida amaliy bezak san’ati taraqqiyotida yuzaga kelgan ko‘tarilish XIX-asrning oxirgi choragigacha davom etdi. XIX-asrning 1 – yarmida qat’iy shakl mujassamotini tuzishga intilish kuzatildi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, badiiy hunarmandlik (abrli matolar guli, zardo‘zlik, kandakorlik)da aniq ko‘zga tashlanadi. Naqsh mujassamoti va mavzu shakliga ko‘ra bir oz qat’iy, sipo va tashqi ko‘rinishi takomillashgan. Xonadonlarda yaratilgan kashtalarda XVIII-asr san’ati xususiyatlari (soddalik va go‘zallik) uzoqroq saqlangan. Bu davr amaliy bezak san’atining barcha sohalari shakl, rasm va o‘ziga xoslikni saqlagan. XIX-asrning 2 – yarmida ko‘pgina shahar va qishloqlar (Marg‘ilon, Namangan, Buxoro, Andijon, Samarqand, Kitob, G‘ijduvon, Urgut, Beshariq va boshqalar)da xilma-xil sidirg‘a va guldor ip, ipak va yarim ipak xonaki gazlamalar sodda va murakkab usulda to‘qib chiqarilgan. Ayniqsa, paxta va ipakdan to‘qilgan pishiq tivitli matolar (duxoba, baxmal), chiviq shoyilar (adras, beqasam, banoras), nafis va engil ipak ro‘mollar (qalgay), shildiroq va tovlanuvchi shoyi-kanovizlar, beqiyos ko‘rkam, bo‘yoqlarning tafovuti va uyg‘unligi bilan bir-biridan ajralib turadigan atlas, yakruya, xonatlaslar, Farg‘ona va Samarqandning nimrang va mayin gulli choyshablari keng shuhrat qozongan. Bu matolarning bezash usullari asosan guldor va yo‘l-yo‘l shaklda bo‘lgan. XIX-asr Ustalari keskin, ayni paytda muloyim ranglar nisbati (masalan, pushti tag ustiga

bosilgan qizg‘ish qora gullar va boshqalar)ga murojaat qilgan. Gul bosilgan matolarning bezak mujassamotida bog‘ning hayoliy ravishda o‘zgarib ketgan obrazlari – chaman bo‘lib ochilgan gullar, latif g‘unchalar, chirmashib ketgan novdalar, palaklar, barglar, pishib turgan anor, bodom va boshqalar keng o‘rin olgan. Handasiy shakllar esa mujassamotning ravon, ayni paytda aniq ritmlariga bo‘ysunadi, bu ayniqsa, rango-rang hoshiyali, o‘rtasida katta-katta qatorli doiralar joylashgan namunalarda ko‘zga tashlanadi.

Bu davr kashtachilik san’ati ham turli mahalliy markazlar (Buxoro, Nurota, SHahrisabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Pskent va boshqalar)da rivoj topgan. XIX-asrning 80-yillarigacha kashta ipak, jun hamda xonaki tabiiy oq va qizqish ranglarda ohorlangan ip gazlamalarga tikilgan. Keyinchalik yirik zeb-ziynatlar uchun tikiladigan kashtalarga binafsha rang, sariq, zangori va to‘q sariq rangdagi kosibiy ipak matolari (shoyi) hamda fabrikada to‘qilgan matolar ishlata boshlandi. 80-yillarga kelib iplarni oxorlashda nil bo‘yoq qo‘llanishi kashta sifatining pasayib ketishiga olib kelgan bo‘lsada, ayni paytda ranglar majmuasining o‘ta yorqinligiga va rang-barang tovlanishiga asos bo‘ldi.

Asarning obraz tuzilishida muhabbatlikka intilish an’anasi Samarqand, Toshkent so‘zanalari, Buxoro abrli matolarida yorqin namoyon bo‘ldi. Samarqand kashtalarida bunga mujassamotning aniqligi va soddaligi, yirik turunjlarning bir maromda joylashuvi hamda kuchli navolar bilan o‘ralishi, har xil ranglar (qizil, qora, oq) uyg‘unligidagi jiddiylik orqali erishilgan. XIX-asrning 1-yarmi va o‘rtalarida yaratilgan jo‘shqin ritmli so‘zanalarda bevosita gullagan bog‘ ko‘rinishlari ifodalangan bo‘lsa, yangi kashtalar o‘z sipoligi bilan diqqatni tortadi. O‘z davrining estetik g‘oyalarini ifodalagan kashtalar yangi badiiy ifoda shakllarini yuzaga keltirdi, yangi obrazli ma’nolarga ega bo‘ldi. Buxoro abrbandi ustalari san’atida kashtachilikdagi kabi yirik va umumlashtirilgan “oy”, “daraxt”, “patnis”, “zuluk” va boshqa mavzular eni avvalgidan 1,5 baravar kengaygan mato kengligi bo‘ylab joylashtirildi. Bu o‘z navbatida naqsh mujassamotiga salbiy ta’sir etdi, “boy” so‘zana va gilamlarda bo‘lgani kabi kengaytirishga intilish yuzaga keldi, ustalarning

bevosita bezakdagi mujassamot, ritm, ko‘lamni his etish qobiliyati yo‘qoldi. Bu kabi hashamdorlikka intilish zardo‘zlikda kuchli namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston kashtachiligining noyob turi zardo‘zlik san’ati XIX asrning o‘rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. Mohir Ustalar amir saroyi ustaxonalarida amirning o‘zi va saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zar va kumush iplar bilan erkaklar to‘ni, salla, do‘ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko‘ylak, kamzul, peshonaband, ro‘mol, etik va boshqalar tikilgan. Rangdor tosh va metall kubbalar qo‘shib tikilgan zardo‘zlik buyumlari saroyning ichki qismini, ot jabduqlarini bezashda keng qo‘llanilgan.

Asriy an’analarni o‘zlashtirgan zargarlik san’ati XIX-asrda ijro usullarining xilma-xilligi, shakllarga boyligi, ko‘lami bilan ajralib turadi. Ustalar shabaka, qoplama va qadama, zig‘irak bosma, sovotkori, chizma, kandakori, zarxallash, sirlash, o‘yma, va boshqa turli ijro usullarida keng foydalangan. Buyumlar shakllari ifodaliligi va nafis echimga boyligi bilan ajralib turadi. CHakka taqinchoqlariga ko‘p qavatlilik, zanjirli munchoq, yaproqchalardan tuzilgan shokilalar oqimi bilan turunjlarning oralab kelishi, la’li, marjon, feruza, aqiq, lojuvardning oltin va kumush bilan yorqin uyg‘unlashuviga xos. XIX-asrning 2-yarmida hashamdorlik va bezakdorlik xususiyatlari zargarlik san’atida aniq ko‘zga tashlanadi. Taqinchoqlar dabdabali va qo‘pollashib bordi, ularning shakli murakkablashdi, hajmi kattalashdi. Mezonning buzilishi, o‘z navbatida, buyumlarning naqshlar bilan to‘ldirishga, ko‘zga tashlanuvchi rangdorlikka olib keldi. O‘rta hol aholi uchun tayyorlangan buyumlarda qimmatbaho toshlar rangli shisha, o‘ta mehnat talab qiluvchi zig‘irak usuli qolipaki usuli bilan tez-tez almashtirib turildi. An’anaviy yo‘nalish bilan birga Evropa an’anasi ta’sirida zargarlik buyularining o‘ta ixchamligi, yaxlitligi, aniq shakli bilan ajralib turuvchi yangi yo‘nalish kuzatildi.

XIX-asr o‘rtalarida Rishton kulollik markazlaridan biri bo‘ldi, bu markaz Ustalari (Usta To‘xta, Usta Abdullo va boshqa) muyqalam bilan ishlashning o‘ziga xos usulini ishlab chiqdi. Gul va chirmoviqlardan iborat nafis moviy rasmlar (“Bahor” naqshi) nozik va engil tur bilan idish yuzasiga ishlandi.

XIX-asrning o‘rtalariga kelib O‘zbekistonda kulollikning asosiy markazlari shakllandi: G‘ijduvon, Samarqand, Rishton, Qurumsaroy, Denov, Xorazm va boshqalar. Bu erlarda tayyorlangan sopol buyumlarning rang guruh (majmua)lari aniq chegaralangan (moviy va oq-zangori hamda zangori va qo‘nqir-sariq). Muayyan ranglarga moyilligi ishlatilgan moddalar tarkibiga asoslangan. Farg‘ona va Xorazmda ishqorli sir ishlatilgani uchun bezakda moviy, oq, zangori ranglar majmuasi hukmronlik qildi. Farg‘onada idishlar ko‘proq nozik gul o‘simlik elementlari bilan bezaladi. Xorazm kulollari ishlagan gullar me’moriy sopol bezaklarga yaqin bo‘lib, buralib-buralib turilgan hamda handasiy shakllar bilan o‘ralgan holda tasvirlangan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi qo‘rg‘oshin sir ishlatiladigan joylarda sariq, qizqish, qo‘ng‘ir ranglar majmuasi asosiy o‘rin tutadi. Gullar o‘zining sho‘hchanligi, yorqinligi bilan ajralib turadi.

XIX-asr oxirida yog‘ochga badiiy ishlov berish rivojlandi. Ro‘zg‘or buyumlari, uy jihozlari, musiqa asboblarini bezashda ustalar o‘yma, bo‘yama va qadama usullaridan unumli foydalandi. Ayniqsa, o‘ymaning ikki turi – zaminsiz va zaminli turida yaratilgan naqshlar badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. YOg‘och o‘ymakorligi, temperada ishlangan bo‘yama naqsh bilan bir qatorda oddiy bo‘yalgan ro‘zg‘or buyumlari (javoncha, beshik, chiqiriq va boshqalar) ham keng tarqaldi.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida amaliy bezak san’ati taraqqiyoti juda murakkab va qarama-qarshiliklarda kechdi. Unda yangi uslubiy belgilar, yangi obraz echimlari kuzatildi. Biroq ayrim sohalarda turli darajada tushkunlikka moyillik ko‘zga tashlandi. Bu bezashga berilishda va hashamdorlikda, keng xalq ommasiga mo‘ljallangan ro‘zg‘or buyumlarida esa ijodkorlikni yo‘qolishi va soddalashuvida ko‘rindi.

Mazkur davrda to‘qimachilik, kashtachilik, gilamchilikda mayin tuslarga ega bo‘lgan o‘simlik bo‘yoqlari o‘rniga chidamsiz va o‘ta yorqin anilin bo‘yoqlarining ishlatilishi, popopda kashta tikilishi, kulollikda ruhli sirlarni qo‘llanishi va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlar xos.

Amaliy bezak san’atida davr ruhi an’analariga erkin ijodiy yondashishda, avvalo, naqshning aniq tasviriy mavzular bilan boyishida o‘z ifodasini topdi. Mis

buyumlardagi kandakori naqshlarda hayvon, qush, baliq va hatto me’moriy obidalar tasviri keng kiritildi. Rishton, Xorazm, G‘ijduvon sopol idishlari bezagiga musiqa asboblari, pichoq, miltiq, ko‘za, choynak, hayvonlar, qushlar tasviri kiritildi. Buxoro abrli matolari – adrasda davrning texnika yangiliklari (kerosin lampa va boshqa), zargarlik buyumlari, masalan: tumorlarda, soat, chinni, choynak, piyola va boshqa tasvirlar joylashtirildi. Bu erga chetdan keltirilgan mato, chinni va boshqalardagi tasviriy mavzular shundayligicha o‘zlashtirildi. Amaliy bezak san’atining ayrim turlari (matoga gul bosish, kashtachilik, kulolchilik va boshqalar)da uslubiy namunalar, an’analar, mavzularning shartlilik darajasida kuchaytirishda, ularni o‘ta umumlashtirishda kuzatiladi, xususan, shu davrda yaratilgan naqshlarda gul, mevaning avvalgi obrazi zo‘rg‘a ilg‘ab olinadi.

Kulollikda XIX-asrning oxiridan ruhli sirdan foydalanish bo‘yoqlar jilvasini boyitdi, yorqin ko‘p ranglilik yuzaga keldi. Bu sohada Katta qo‘rg‘onlik ustalar yuksak badiiylikka erishdi. Kulollikda ham mato va kashtachilikda bo‘lgani kabi bezakdagi obraz qurilishida mahobatlilikka intilish ko‘zatiladi, bu buyumlar shaklidan tashqari naqshlarni ishlash usulida ham o‘z aksini topadi: jushqin maromda berilgan mayda gullar o‘rnini yiriklari egalladi. Ustalar mavzuni nozik ishlashdan umumlashtirib berishga o‘ta boshladi, naqsh mujassamotiga turli xil tasvirlar (ko‘za, pichoq, musiqa asboblari va boshqalar) erkin kiritildi. Sopol buyumlar bezagiga rus chinnisi, matosi rasmlari ham ta’sir etdi. Rossiya va Xitoy chinni va metall idishlarining ommaviy keltirilishi kulollikka ta’sir etdi. Buyumlarni ommaviy ishlab chiqarilishi arzonlashtirishga intilish ularning badiiy qiymatini tushurib yubordi.

Tosh o‘ymakorligi buyumlari bu davrda keng tarqalmadi. Amaliy ahamiyatga ega idishlar deyarli bitilmadi, oq, kul-rang, qora marmardan yasalgan bezakli laganlargina yaratildi, past burtma hosil qilib ishlagan markaziy doira – bo‘laklarga bo‘lingandan to butunlay qoplab bezatilgan, chirmoviqlar handasiy mavzu va yozuvlarning nafis o‘ramlarini hosil qilgan. Gliptika san’ati taraqqiy etdi, qimmatbaho toshlar va metalldan muhrlar tayyorlandi, doira, oval, ko‘p qirrali, bodomsimon shakllarga yozuvlar mahorat bilan joylashtirildi. YOzuvlar nafis gullarning mo‘‘jas tasvirlari bilan to‘ldirildi.

XIX-asrning oxiri XX-asr boshlarida amaliy bezak san’atida soddalashtirishga intilish kuzatildi. Iqtisodiy va texnika taraqqiyotining yangi sharoitlarida yangi xususiyatlar yuzaga keldi. Bu davrda amaliy bezak san’ati sekin va notekis rivojlandi, unga uslubiy birlikning yo‘qligi xos bo‘lib, qarama-qarshi an’analar va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar amaliy bezak sa’natida badiiy yo‘qotishlarga olib keldi.

XX - asrning 20-yillaridan keyin O‘zbek amaliy bezak san’ati qo‘shni xalqlar san’ati bilan bir oqimda rivojlandi. G‘oyaviy-badiiy jihatdan bu davr tushkunlik an’analarini engib o‘tish, o‘tmishning yaxshi an’analariga tayangan holda yangi taraqqiyot yo‘llarini izlash davri bo‘ldi. Ijodiy vorislik hayotga kirib borayotgan dunyoqarashni umumlashtirishda, naqsh mujassamoti doirasining kengayishida o‘z ifodasini topdi. 1920 – 30 yillarda O‘zbekistonda mahalliy badiiy sanoat yuzaga keldi. Badiiy xunarmandlikning ko‘plab sohalari (ipakchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, kandakorlik va boshqalar) tiklandi. Abrli matolarda (liboslar uchun) Farg‘ona uslubiy yo‘nalishi, murakkab rasmning nafis ishlanishi (A.Ahmedova va boshqa), interer uchun (choyshab) Buxoroning so‘nggi yirik, ixcham mavzularining lo‘ndaligi etakchi bo‘ldi. An’anaviy matoga gul bosishni tiklash bilan birga mavzuli tasvirlar izlash ishlari boshlandi (A.Abduqafforv, G.Quziev, K.Quziboev). Kashtachilikda (so‘zana) XIX-asrnin eng yaxshi an’analari (guldorlik, samimiylik, ifodalilik) tiklandi (R.Rajabova, Z.Kovalevskaya). Popopda tikilgan so‘zanalarda markaziy maydoni ko‘p qatorli keng hoshiyalangan quyuq o‘simlik gullari bilan to‘ldirilgan asosiy mujassamot turi shakllandi. Mahalliy do‘ppilardan CHustning “ chust”, SHahrisabzning “iroqi” do‘ppilari keng ommalashdi. Patli gilam buyumlari va an’anaviy handasiy gulli paloslar ishlab chiqildi. Ilk bor portretli gilam (Usta Q.Abdullaev) yaratildi. Zargarlik buyumlari shaklan soddalashdi (Abduvali Abdurasulov, Abduqani Abdurasulov, Abdukarim Abdurasulov, S.Pochchaev, K.Miroqov va boshqalar). Kandakorlikda mavzuli tasviriylikka intilish kuchaydi (A.Hamidov, V.Stolyarov va boshqalar). Kulollikda yaxshi an’analar rivojlantirildi, rasmning mukamalligi, bo‘yama naqshning yorqinligi ortdi, uning ta’sirchanligi kuchaydi (T.Miraliev, M.Ismoilov, U.SHermatov va boshqalar).

30–yillarning o‘rtalarida amaliy bezak san’atining sanoat taraqqiyoti boshlandi. Badiiy sanoatning dastlabki korxonasi - Toshkent to‘qimachilik kombinati ishga tushdi (1934), chitga gul bosishning yangi tarmog‘i yuzaga keldi. Matoning badiiy bezash usuli rus (Moskva, Ivanovo, Serpuxov va boshqalar) chitga gul bosish an’analari, milliy xalq ijodi va yutuqlarini o‘rganish zaminida shakllandi. Amaliy bezak san’ati badiiy hunarmandlik, badiiy san’at va uyda ishlab chiqarish kabi 3 yo‘nalishda rivojlandi.

Bu davrda amaliy bezak san’atining ayrim turlari notekis rivojlandi. Matolarni bezash san’ati, gilamchilik, do‘ppido’zlik kashtado’zlik kulollik taraqqiy etdi. Kandakorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik o‘zining amaliy ahamiyatini birmuncha yo‘qotib, bezak vazifasini o‘tab bordi. Asr boshida mag‘zi soxta buyumlarini bezash, baxmal tayyorlash, charm buyumlarni bezash, zardushtiylik kashtado’zlik yo‘qolib ketdi. Asosiy asarlar ustalar tomonidan an’anaviy usulda yaratildi, naqshlarning doimiy shakli va mavzulari san’atning hayotiy asoslari va uning ichki mazmuni, yangilikka sezgirligi tufayli zamonaviy ohang ola boshladi. Mahalliy san’at maktablarining yutuqlari asosida amaliy bezak san’atida umummilliy xususiyatlar ortib bordi. 2–jahon urushi yillarida to‘qimachilik va kulollik taraqqiy etdi. Toshkent to‘qimachilik kombinatida sodda usulda ishlanadigan matolar ishlab chiqarildi. Rassomlar ranglarning keskinligiga asoslangan sodda gullar yaratdi: bir rangning tuslari doirasida tovlanishiga asoslangan kolorit boyitildi. Keyinchalik matolarni badiiy bezash ancha rivojlandi, to‘qimachilik artellarida an’anaviy yo‘l-yo‘l va katak matolar (qalami, olacha, janda va boshqalar) ishlab chiqarildi. Atlas va beqasamlar kam miqdorda to‘qildi, badiiy sanoatda to‘qimachilikning yangi turlaridan jakkordli to‘qimachilik davom etdi.

Kulollik buyumlarini ishlab chiqarish o‘sdi, milliy shakllardagi sopol va buyumlar (xum, tog‘ora, kosa, lagan va boshqalar) tayyorlanadi, buyumlarning ko‘p qismi bezatilmaydi. Bezakli idishlar an’anaviy naqshlar bilan qoplanadi. Bo‘yama naqshda nafis va ifodali feruza-yashil pushti ranglar etkchi o‘rin tutadi. Kashtachilik zargarlik buyumlari, kandakori mis idishlar, o‘yma va bo‘yama naqshli buyumlar tayyorlash bu yillarda qisqaradi.

Marg‘ilon shoir to‘qish korxona ishga tushdi (1943-47), mamlakat to‘qimachilik san’ati uchun yagona bo‘lgan usulda bezatilgan ularning milliy an’analarini boyitayotgan ipak va suniy toladan bosma gulli matolar ishlab chiqarila boshlandi. Kulollik, kandakorlik, matoga gul bosish, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlikda mavzuli tasviriylikka intilish kuchaygan, biroq o‘z navbatida dastgohlik omiliga rioya qilish ustalarning ijodiy izlanishlarini cheklab qo‘ydi. Xalq ustalari Usta SHirin Murodov, Mahmud Usmonov, Abdulla Boltaev va boshqalar. Navoiy teatiri, Muqumiy teatiri va boshqa binolarni bezashda faol qatnashib, milliy ganchkorlik, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligining noyob namunalarini yaratdilar.

50-yillarda yog‘ochni bezash sohasida uy jihozlarini bezatish doirasi kengaygan, ustalar bezak shakllaridan amaliy buyumlar (xontaxta, kitob javoni, yozuv stoli, va boshqalar)ni bezashga o‘tdilar. 60-yillardan yog‘och va ganch o‘ymakorligi an’analaridan zamonaviy jamoat binolarini monumental bezaklar bilan yaxlit bezashda keng foydalanilmoqda.

1960-70-yillarda ijtimoiy hayotiy muhit san’atda milliylik va baynalmillalikning o‘sishini taminladi, ustalarning ijodiy faolligi ortdi, badiiy sanoatning yangi korxonalari yuzaga keldi. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining quvvati oshdi (Toshkent, Marg‘ilon, Samarqand fabrikasi). To‘qimachilikda rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi bilan bir qatorda ijodiy qo‘l mehnatini talab etuvchi an’anaviy abrli ipak matolar ishlab chiqarish ham o‘sdi. Abrbandi san’ati o‘zining yangi ko‘tarilish jarayonini boshidan kechirdi. (“Atlas” firmasi, Namangan shoir to‘qish fabrikasi). Ustalarning ijodiy izlanishlari an’anaviy shakl chegarasini kengaytirdi, bu o‘z navbatida katta bezak kuchlari bilan badiiy umumlashmalarni amalga oshirishni taminladi. Ustalardagi davrning dolzarb voqealarga javob berishga intilish istagi matolarni bezatishga ramziy echimlarni qo‘llashga olib keldi: “Yo‘ldosh”, “SHarq”, “Beruniy yulduzlari” va boshqa tasviriy mavzular orqaligina emas, ko‘proq dadil qo‘llanilgan yorqin ranglar nisbati, mujassamligining o‘ta jo‘shqinligi umumiy ko‘tarinki kayfiyat orqali berilgan (A.Abduqaniev, T.Mirzaahmedov, X.Mullajonov, M.Sobirov, S.Toshpulptov, A.Hamidov,

E.Umaraliev va boshqalar). Gilamchilik va palas to‘qish, kigizchilik rivojlanib bordi. Ularning guli va ranglari qizil jigarrangdan quyuq va to‘yingan to‘q qizil ranglargacha cheksiz turlandi. Turli xil handasiy gulli (“arabi”, “gachaori”, “terma” va boshqalar) poloslar yorqin qarama-qarshi ranglarni uyg‘unlashtirib to‘qildi (T.Juraeva, D.Qo‘chqorova, B.Mamadrahimova, B.Mirzaeva, A.Pardaeva, A.Ruziboeva, B.Holmatova, O.Hurromova va boshqalar). Umumiy an’analar va madaniyatlar yaqinlashuvi ta’sirida O‘zbekistonda yangi soha bo‘lgan patsiz gilam, tasvir tushurilgan mato (jumladan, shahar ko‘rinishi va boshqalar) mavzuli namoyonlar ustida ishlandi.

Kashtachi va chizmakashlari san’ati andozasiz, qolipsiz tajriba va ish jarayonida hayolot olamida yaratilgan, tugallangan naqsh mujassamotlarni yuzaga keltirdi, turli ahamiyatga molik buyumlar (yirik so‘zanadan tortib mayda choy xaltagacha) tayyorlandi (B.Ahatova, F.Ramazonov, P.SHoqulova, A.SHukurova va boshqalar). O‘zbekiston xalq rassomi, kashtado‘z F.Saydalieva o‘ziga xos portret (“Novoiy”, “Oybek” va boshqalar) va mavzuli namoyonlar yaratdi. Poppopda kashta tikish keng tarqaldi. Qo‘l va maishiy kashtasida yashnagan tabiat g‘oyasi quyoshsimon turunj yoki yaproqlar bilan o‘ralgan buta ko‘rinishida targ‘ib etildi. Amaliy bezak san’atining nodir turi bo‘lgan zardo‘zlik ustalar tomonidan avaylab asraldi va rivojlantirildi. Islomiy naqshlar bilan bezatilgan buyumlar (do‘ppi, nimcha, cho‘pon, ko‘vush, yostiq jildlari va boshqalar) bilan bir qatorda dabdabali yirik nomoyonlar ham yaratilgan. Do‘ppi kashtalari chevarlarning boy hayolotlari tufayli doim harakatchan to‘loqonli san’at asarlari bo‘lib qoldi, gullari nafis, ranglar uyg‘unlashib bordi, yangi bezak nushalari yuzaga keldi. Parcha matosini ishlatish turli tuman kashtachilikning mahalliy xususiyatlarini erkin qo‘llash yanada chiroyli va engil ijro etiladigan nushalar yaratish imkonini berdi.

Buyumlarida an’anaviy va zamonaviylik uyg‘unlashagan zargarlik sanoati yuzaga keldi (Toshkent zargarlik zavodi, 1963-yil). Tillaga yoqud, gavhar, dur, feruza ko‘zlar shuningdek arzon metallarga shisha ko‘zlar qadab uzuk, zirak, bilaguzuk va boshqa buyumlar ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi (I.Javarov, YU.Qoroliev, K.Malikov, U.SHoakbarov va boshqalar). Zamonaviy zargarlik

san’atida umumiylik va mahalliy o‘ziga xoslik xususiyatlari uyg‘unlashtirildi. Qo‘lda ishlangan buyumlarda har bir viloyat ustalari an’anaviy ko‘rinishlarini saqlab qoldi.

CHinni sanoati yaratildi. Respublikada birinchi chinni zavodi 1953-yilda ochilib, u erda O‘zbekiston xalq rassomi M.Rahimov, S.Rakova, A.Aminovlar ijodiy tajribalar olib borishgan. Keyinchalik ularning safiga YA.Qoraev, H.Haydarov, A.Nuqmonov, A.Mirzaboev, B.Sobirov qo‘shilgan. O‘zbekiston chinnisozligi xalq amaliy san’ati an’analari asosida rivoj topgan.

Qarama-qarshi yorqin ranglarni uyg‘unligi zarxalliy naqshning murakkab va quyuqligi orqali buyumlarni shohchan bezatishga erishildi: ko‘k, qizil, sariq va boshqa yorqin zaminida zarhal bilan jonlantirilgan yorqin oq gul ko‘zga tashlanadi (R.Orifjonov, A.Nurmonov, YO.Qoraboev, A.Mirzaev, F.Guliev, A.Dobryakova, L.Petruxova, O.Severova va boshqalar). Rassomlar o‘zlarining yaxshi asarlarida bayramona kayfiyat va ijodiy milliy o‘ziga xoslikni bera oldi. Yirik xalq ustalari bo‘lgan ko‘plab mahalliy kulollik maktablari o‘sdi. M.Obloqulov, R.Zuhurov, I.Komilov, Y.Nazrullaev, M.Rahimov, T.Rustamov, X.Satimov, U.Umarov, A.Hazratqulov, M.Halilov va boshqa ustalarning ishlarida xalq san’ati an’analarining erkin uyg‘unlikdagi taraqqiyoti namoyon bo‘ldi. Naqsh va chizmalarda rasm chiziqlarning erkin usuli, ranglarda mohirona foydalanishning hammasi jonli hayot va quvonchni ko‘tarinki ruhda obrazli mujassamlashtirishni yuzaga keltirdi. Mavzuli tasvirlar (o‘ynayotgan bola, ona-bola, paxta terayotgan o‘smir va qizlar), bevosita hayotiy kuzatishlarni lirik berilishi kullolikni mazmunan boyitdi (S.Rakova). Mayda shakillar haykaltoroshlikdagi kulguli maishiy janir yuzaga keldi: “SHaxmatlar”, “Kabobxona”, “Egizaklar”, “Hofiz”, “Kulol”, “Ko‘rash” va boshqalar.

1.2. O‘zbek xalq amaliy san’atini o‘rgatishda ustoz-shogird an’analari va uning ahamiyati.

Qadimda hunar o‘rganish muqaddas sanaladi. Har bir xalq kelajak avlodlariga o‘zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O‘zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo‘lgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, SHaxrixon, Samarqand viloyatida Urgut, Farg‘ona viloyatida Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan viloyatida CHustda xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Hunarmandlar o‘sha davrda maxallalarga bo‘linib yashaganlar, chunonchi zargarlik maxallasi, pichoqchilik maxallasi, deb yuritilgan. O‘sha davrlarda yana misgarlik, bo‘yrakchilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik va kulolchilik maxallalari mavjud bo‘lgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachi maxallasi bo‘lib u erda umuman Buxorodagi bo‘yra to‘qiydigan ustalar yashagan. Bo‘yrachi maxallasida 120 ta oila yashagan.

Har bir kasb-korlik maxallasida qo‘ni-qo‘shinlar o‘rtasida raqobat bo‘lgan. CHunki kimning mahsuloti sifatida bo‘lsa, xalq o‘shani ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. SHuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan.

Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda odatda bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga keltirgan mollarini ko‘zatib ularga narh belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Usta o‘tmishda xalq ustalarining eng bilimdon hisoblangan. CHunki ular madrasada tahsil olib adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar. Naqqoshlik texnalogiyasi avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bilganlar. SHogirdlari usta bo‘lganlaridan so‘ng ular ham o‘z shogirdlariga o‘rgatgan. SHunday qilib, naqqoshlik kasbini an’ana tariqasida rivojlantirib kelganlar.

Usta o‘ziga shogirdlikka o‘z bolasini yoki qarindoshlaridan olganlar. SHogirdlikka 7-8 yoshdan olingan. O‘qish o‘rganish 7-12 yillar atrofida bo‘lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduz kuni ishlab kechqurun esa ustoz rahbarligida savod chiqarilgan. SHogirdlar geometriya va kimyoni o‘rganganlar.

SHogirdning qo‘lidan mustaqil ish kelgandan keyin ustalar uning ishlarining muhokama qilishib, so‘ngra «usta» nomini berishgan.

Ustaning o‘g‘li ota kasbini yoshlikdan o‘rganib borgan. Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo‘lishiga zamin yaratgan. Ustada o‘g‘li yoki farzandi bo‘lmasa, bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga bolalariga o‘rgatgan. Xullas kasb avlodga meros qolish an’ana xolda rivojlanib kelgan. Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urf odat bo‘lgan: Bolani usta oldiga olib borish o‘ziga yarasha tantana bo‘lgan. Bolani ota - onasi va qarindosh urug‘lari «bo‘y» degan bo‘g‘irsoq va xolvatar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va "bolani go‘shti sizniki, suyagi bizniki" qabulida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o‘sha paytdayoq birgalikda tanavvul etilgan. Usta bolaga hunar o‘rgatishdan tashqari butun o‘qish davomida o‘zi oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan. Kasb o‘rgatish tekin olib borilgan.

Ustoz shogirdga qattiq qo‘l va talabchan bo‘lgan. CHunki har bir hunarli o‘ta nozik did va sabr toqat bilangina o‘rganish mumkin bo‘lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni egri va noma’qul ishlarga yaqin yo‘lamaslikni, ustoz ruhsatisiz biror ishga qo‘l urmaslikni, qat’iy turib talab qilganlar.

O‘zbek ustalaridan biri ganch o‘ymakor usta Usmon Ikromovning hayot yo‘li ibratlari. «Yosh Usmon usta Rasulhojini qo‘lida 8 yil ishlaydi. Besh yilgacha haftalik haqi 10 tiyindan oshmagan. Har payshanba kuni Rasulhoji shogirdi qo‘liga 10 tiyin bergan Usmon pulni olib bozordan borgan onasi va ikki singlisiga egulik olib borgan. (15-rasm).

Odatda shogird faqat usta buyurgan ishni qilishi kerak edi. Ustadan beruhsat shogird biror ishga urinsa yoki uning asboblariga teginsa kaltak erdi. Oltinchi yiliga o‘tganda Usmonning hafta ish haqi 50 tiyinga, sakkizinchi yilga o‘tganda esa kundalik ish haqi bir so‘mga chiqdi. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho‘pgarlikdan tortib, g‘isht terish, suvoq, ganch o‘ymakorligini mustaqil bajara oladigan bo‘lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon ustasi Rasulxojidan oq fotiha olib, usta nomiga ega bo‘lgan.

Buxorodagi hamma ganchkor ustalarga ganch sotadigan boylardan biri Abu Bakrdir bir kuni usta Hayotni chaqiradi va yangi uyni ganch bilan bezamoqchiligini aytadi. So‘ngra usta Hayot bu ishni 22 yoshli SHirin Murodovga topshiradi. Bu ish SHirinning birinchi mustaqil ishi bo‘ldi. SHirin mehmonxona bezaklarini oddiy bejirim nisbatlarini saqlagan holda bir butun ko‘rinish va boshqalarini hisobga oladi. U mehmonxona va ayvonlarni sharaflar bilan bezaydi. Undagi o‘yma ganchlar juda mayin bejirim chiqqanligi sababli ustalar orasida hurmat obro‘si yana ham oshadi. Usta Hayot kunlardan bir kun SHirinni oldiga chaqirib, men sendan xursandman endi mustaqil ishlayversang bo‘ladi deyidi. Azaliy odat bo‘yicha unga ustalar o‘rtasida usta nomini berishadi. SHirin Murodov shundan so‘ng xalq o‘rtasida usta degan sharafli nomga sazovor bo‘ladi.

O‘zbek me’morlari yaxshi yashash uchun har jihatdan qulay shinam, chiroyli uylar qurganlar. O‘zbeklarni xovli-joyi tutal bir me’moriy ansamblni tashkil etib o‘ziga xos sharqona fayzi bo‘lgan. Bu qurilgan uylarni bir-biriga o‘zviy qilib qurilishi va bezalishi bir san’at darajasida bo‘lgan.

YOg‘och o‘ymakorligi bo‘yicha ishlayotgan shogird ustani uyida yoki o‘zining uyida turgan. SHogirdni yaxshi va puxta o‘rgatish uchun avval uni mehnatga o‘rgatgan va shu hunarga tabiiy holda qiziqishini oshirgan. Buning uchun ustoz shogirdiga uyidagi mayda-chuyda uy ishlarini buyurgan. Keyin esa asta ustaga asbob uskunalarni olib berib turish yoki xom ashyoni tayyorlab turish, keyinchalik esa eshik, derazalarni, ustunlarni o‘rnatishga va naqshlarni o‘yishga o‘rgatgan. Ya’ni bolani yashash bilan birga hunar sirlarini

oddiydan-murakkabga qarab o‘rgatib borgan. 3-4 yillardan so‘ng yaxshi tajribali shogirdiga usta 15-20 kun pul ishlab kelishi uchun ruhsat bergan.

SHogirdga usta nomini berish o‘ziga xos urf-odatlari bo‘lgan. Bu tantanaviy kecha shogirdning ota-onasini uyida yoki ustani uyidan o‘tkazilgan. Kechaga shogirdning qarindoshlari, ustozni qo‘lida ishlayotgan shogirdlar, ustalar, mullalar qatnashgan. Ustalar kattasi oqsoqol yoki ustakalon uning yordamchisi poykor usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla o‘ragan. CHopon kiygazib beliga qiyiqcha bog‘lagan va beliga qiyiqchaga arra va tesha qistirib qo‘yilgan. Ustalar va do‘stlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan yopgan nonni olib kechani sababchisiga qarab "qaerga borsang ham o‘zingni qo‘ygan kulchangni ko‘rsatgin" deb bergan. Bunday urf-odatlarning har xil turlari bo‘lgan. Ba’zi urf-odat bo‘yicha bulguvchi ustaga biror bir uyni mustaqil bezashni topshiriladi. Uyni bo‘lguvchi usta bitkazgandan so‘ng ustalar uning ishini tekshiradilar va baho beradilar. Agar ustalarga ma’qul tushsa, unda shogirdga "usta" degan unvonni berilgan. SHundan so‘ng yosh ustaga boshqa shaharlarga borib ishlashga ruhsat berilgan yoki ba’zi yosh ustalar ustaga "xalifa" bo‘lib, uning boshchiligida ishlab yurgan.

Oqsoqolni tayinlashda shaharlardagi eng katta tajribali ustalardan birini saylagan. Agar oqsoqol biror noxaq ish qilib qo‘ysa unda biror masjidga oqsoqolning yordamchisi va hamma ustalarni yig‘ib qayta oqsokol saylagan. Buxoroda esa oqsokrlni qayta saylash boshqacharoq bo‘lgan. Ustalar Buxoro xoniga mahsus ariza yozar edilar. SHundan so‘ng Buxoro xonidan "sarpo" va mahsus qaror ya’ni "yorliq" olgan. Xalqqa qarorni o‘qib sarponi kiydirilgan.

Buxoroda XIX asr oxiri XX asr boshlarida duradgorlar boshligi usta Gulom, O‘ra-Tepada esa usta Karim Kajorboshi (usto Abdu Karim Abduxolikrv) bo‘lgan. O‘ra Tepalik xalq ustalarni yuqori Zarafshon qishloqlarida masjid, madrasa, turar joy binolarini bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasi turar joylarga ustalarni ishlashga yuborganlar. Ularga ish haqi tariqasida ishlagan joylarda kiyimlar, qo‘y, sigir, echki, er yoki pul berilar edi.

Masalan, O‘ra Tepaning ko‘k Gumbaz mahallasida Mavlono Eshon maqbarasini ikki o‘yma eshigini bajarish uchun usto Karim Xorrot va Abdukodir Xorrotlarga topshirildi. Ular bittadan eshikni o‘yib bezatdilar va ularni ikki tabaqali ikki eshiklar bir qancha katta ustalar orasida baholanadi. Usta Abdukodirning eshigi 70 oltin tanga, usta Karimning eshigi 100 oltin tanga bilan baholanadi.

Usto Karimning eshigini baholashning sababi eshikni yuqori yarim doira qismi naqsh kompozitsiyasi bilan bog‘langan. Abdukodir ustaning eshigi tepasi uchli bo‘lib bino ko‘rishi kompozitsiyaga mos kelmagan, ba’zi ustalar ishiga berilgan bahosiga kelisha olmas edi, shuning uchun bu holatni aralashib kelishmovchilikni hal qilar edi.

1924 yilgacha O‘rta Osiyoda boshqa hunar turlari ustalari kabi zardo‘zlar juda ko‘p bo‘lgan. CHunonchi, Buxoroda 300 dan 350 nafargacha zardo‘z ustalar ishlagan. Hunarmandlar o‘rta asr hunar shirkatlari ko‘rinishidagi mahsus tashkilotga uyushgan edilar. "Zardo‘zlar ishlari ustidan nazorat o‘rnatuvchi bu tashkilot o‘zining saylovchi ma’muriyatiga ega bo‘lib, barcha rasm-rusumlarga va urf-odatlarga izchil amal qilar, tantana va yig‘ilishlar o‘tkazib turar edi.

Buxoro ustalarning zardo‘zlik kasbi odatdan bolaga me’ros bo‘lib kelgan. Asli zardo‘z bo‘lgan oilaning o‘g‘il farzandi otasidan zardo‘zlikni o‘rganib, o‘z navbatida u o‘z bolalariga o‘rgatgan. Pushti kamaridan o‘g‘il bo‘lmagan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga o‘rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros qolishi odatdagi hol bo‘lganiga qaramay, zardo‘zlik ham boshqa kasblar bilan bir qatordan o‘rin olgan.

Zardo‘zlik kasbini o‘rganish uchun 10-12, ayrim hollardagina undan, kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Bolani usta oldiga olib borish o‘ziga yarasha tantana bo‘lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh - urug‘lari

bo‘g‘irsoq va xolvaytar qilib, ustaning huzuriga va "bolaning go‘shti sizniki, suyagi bizniki", qalbida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Usta bolaga hunar o‘rgatishdan tashqari butun o‘qish davomida oziq-ovkat bilan ta’minlab ham turgan. Yangi shogirdga chinakam ta’lim berish ishlarini usta birdaniga boshlayvermagan. Dastlabki paytlardan shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supurib-sidirgan, suv tashigan, bozor-o‘char qilgan, tikuvchilarga yordam bergan, onda-sonda ish orasida, uncha-muncha katim tortib turgan. Oradan bir yil yo undan sal ko‘proq muddat o‘tgandagina unga tikish sirlari o‘rgatila boshlagan. SHogirdga mablag‘ to‘lash borasida ma’lum qoida bo‘lmagan. Hunar o‘rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta’lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan. Bordi-yu, shogirdi o‘ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan mahrum bo‘lishni istamagan ustoz uni 8-10 yilgacha ham saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o‘rtaga solib, ustasi tezroq ruhsat berishini so‘ragan. SHogirdning talabi o‘rinli bo‘lsa, oqsoqol ustadan shogirdga yo oq fotiha berishi yoki bo‘lmasa mehnatiga haq to‘lashi lozimligini aytgan. Albatta, shogirdga to‘lanadigan haq xalifalarga to‘lanadigan haqdan ancha kam bo‘lgan. Norozilik paydo bo‘lmasligi uchun usta qisqa vaqt ichida zardo‘zlik sirlarini puxta egallagan layoqatli shogirdlariga ahyon-ahyonda chetdan ish olishga mo’nelik qilmagan. Gap shundaki, tushgan daromadning kattagina qismi ustaga, undan ortgani shogirdga qolgan. Ta’lim muddatini o‘tgan shogird ustozidan oq fotiha olgan. SHogirdning uyga qaytishi o‘zi bir marosim bo‘lgan. Uni "arvohi miyon bandoy" deb atalib, kasb-hunar homiylarining ruhi qo‘lab yursin degan ma’noni anglatgan. Bu marosim shogirdning zimmasiga tushib, zardo‘zlik uyushmasi a’zolari ishtirokida uning uyida o‘tkazilgan. "SHoxi Mardon xaqqiga belingga belbog‘ bog‘ladim" - deya fotiha o‘qib usta shogirdning beliga belbog‘ bog‘laydi va shu bilan unga zardo‘zlik kasbi bilan mustaqil ish boshlayverishga ijozat beradi. Marosim kunida ustozga bosh-oyoq sarpo, tugun in’om qilingan. Bunday tugunlardan bobo, oqsoqol va poykor ham quruq qoldirilmagan, albatta. Ba’zi hollarda bechorahol shogirdlarni ko‘zatar chog‘ida usta ularga ishni oson boshlashlari uchun kergi (chambarak), qaychi, tayyor gulsingari

ashyo va buyumlardan berib yuborgan. Bordi-yu, oq fotiha olgan shogird iqtisodiy jihatdan nosor bo‘lib, mustaqil ish boshlashga ko‘zi etmasa, ustozni uyida qolib ishlashni so‘ragan. Bunday xolda unga xalifa tarzida igplash huquqi berilib, har ikkala tomon ana shu shart asosida ish haqini kelishib olgan. Zardo‘zlik kasbini xomiysi "arvoxi pir"ga sig‘inish uzoq vaqtgacha qoida bo‘lib keldi. Ilk bahor kunlarida, hususan "guli surx" ayyomida hamma zardo‘zlar Buxoro yaqinidagi Baxovuddin qishlog‘iga kelib, pirning haqqiga qo‘y so‘yib, xudoyi qilganlar. Usta zardo‘zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha "mirzoda"-lar bo‘lib, ularni "risolachi" deyishgan. Haftada ikki marta, yakshanba va payshanba shanba kunlari risolachi barcha zardo‘zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to‘plab, risola o‘qigan, o‘qiganlarini tavsiflarini bergan. Odatda, qirotxonlik dasturxon davom etgan. Qirotxon keyin risolachi tinglovchilardan tushgan uncha-muncha nazr-niyozini belbog‘iga tukkan-da, fotiha o‘qib, navbatdagi ustaxonaga yo‘l olgan.

2. BOB. KASB HUNAR KOLLEJLARIDA XALK AMALIY SAN'ATINI O'QITISH METODIKASI

2.1. Naqsh kompozitsiyalarni chizish orqali o'quvchilarning chizish kqnikma va malakalarini rivojlantirish.

Girix naqsh loyihalarini boyitish, ularni yanada chiroyli chiqishi uchun ularga qo'sh tanobli islimiy novdalar ishtirokida qo'shimcha naqshlar chiziladi. SHuningdek, o'simliksimon gul va barg, shobarg unsurlari ham ishlanishi mumkun. Uch nurli girix loyihalarining tuzilishi yakka, qo'sh va bir necha yo'lli chiziqlar ishtirokida ham chiziladi. Uch nurli girix loyihalarini, qo'sh tanobli islimiy novdalar ishtirokida chizilganda tanob yo'l oralig'i oq rangga bo'yaladi va yo'l chizig'lari siyoh-qalam bilan chiziladi. Bunda girih yasovchi shakl zaminlari och rangda bo'yalib, qo'sh tanob islimiy shakllarning oraliqlari to'q rangga bo'yalishi ham mumkun. Girih naqshlariga qo'shimcha shakl to'ldiruvchi tanob islimiy naqsh unsurlarini joylab loyiha tuzish ancha murakkab jarayon xisoblanadi.Uch nurliy girih loyihalari yakka tanobli islimiy va aralash islimiy naqsh namunalaridan ham tushilishi mumkun. Bunday girih turlarini ustalar murakkab grih turlariga kiritadilar.

"Xandasiy naqsh"lar (girih) va ularning echimlari.

Bu bobda o'quvchilarga "Xandasiy naqsh" echimlari va ular xaqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Girix qadimdan qo'llanilib kelayotgan san'at asarlarining noyob turi bo'lib, uning turlari nixoyatda ko'pdir. Girixlarning eng sodda nusxasidan o'rtacha murakkablikdagi nusxalarini ko'ramiz. Ushbu bobda kasb-xunar kollejlarining o'quvchilari uchun mo'ljallangan. girih va uning tarixi, girihning o'ziga hos jihatlari, girih loyihalarida andozalar, AV kesma asoslarida muntazam o'n ikki burchak yasash. Aylana va yoylar markazini topish. Aylanani uchga bo'lish. Yoy va diometr, kvadratni markazini topish, urunma, tutashtirish, kvadrat ichida muntazam sakkiz burchak yasash, nuqta yoki nur, nurchiziq yoki nur,

Nurning sinib qaytishi. Aylanani olti va o‘n ikkiga bo‘lish, Aylanani sakkiz va o‘n oltiga bo‘lish. Aylanani o‘nga bo‘lish. Aylanani ettiga bo‘lish va muntazzam etti burchak yasash. AV kesma asosida muntazam olti burchak yasash. Berilgan AB kesma asosida muntazam sakkiz burchak yasash. Berilgan AB kesma asosida muntazam besh burchak yasash. AB kesmani teng ikkiga bo‘lish. Berilgan AB kesmani teng bo‘laklarga bo‘lish.

AV KESMANI TENG IKKITA BO‘LISH

AV ni yarmidan ko‘proq radius bilan A va V nuqtadan yoylar kesishtiramiz. Yoylar, kesishagn nuqtalar orqali to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz. (SHakl 29).

BERILGAN AV KESMANI TENG BO‘LAKLARGA BO‘LISH.

Girih murakkab naqsh turi ekanligi, girih loyiha ustalari haqida ma’lumotlar beriladi. Girih turlari, uning unsurlari to‘rtburchaklar, uchburchaklar, ko‘pburchaklar va egri chiziqlar, girih elementlaridan loyhalarilar tuzish yo‘llari, girih loyihalarini ishlash va ularni bo‘yash yo‘llari tushuntiriladi. Gulli girih va uning turlari. Gulli girih tuzish bosqichlari. Gulli girix, loyihalarini tuzish va ularni bo‘yash bosqichlari o‘quvchilarga o‘rgatiladi.

GIRIXNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

Girix qatiy qonuniyatga ega murakkab naqshdir. Usta islimiy nusxa chizishda istagan tomonga novdalarni yo‘naltirishi mumkin. Agar ma’qul bo‘lmasa o‘chirib boshqa yoqqa yo‘naltirib bo‘sh o‘rinlarga gul, g‘uncha yoki barglar bilan to‘ldirib ketaveradi. Demak, usta islimiy chizishda o‘z ishi ustidan xokim. Girix chizishda usta chizayotgan girixiga tobe’ bo‘lib qoladi. CHunki xar bir girix handasiy (geometrik) qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Xandasiy naqshlar O‘rta Osiyo va yaqin SHarq mamlakatlarida juda keng tarqalgan. U o‘zini murakkabligi va aniq qonuniyatga ega bo‘lmaganligi, ko‘rkam va vazminligi bilan sovlat to‘kib turadi. Biron inshoatni bezashda girix bilan islimiy birgalikda qo‘llangan bo‘lsa, birinchi bo‘lib ko‘zimizga girix tashlanadi. Kompazitsiya girix etakchi o‘rinni, islimiy esa to‘ldiruvchi o‘rinni tutadi. SHu sababli girix bilan islimiy birgalikda qo‘llangan kompazitsiyada islimiy girix chizig‘ini kesib o‘tmaydi. Girix birinchi, islimiy ikkinchi planda turadi. Har bir xalqni islimiy yoki oddiy o‘simliksimon

naqshlarni ko‘rsak ular bir – biridan ajralib turadi. CHunki, har erni o‘ziga xos manzarasi va o‘simlik dunyosi naqshida aks etib turadi. Bundan ma’lumk bo‘ladiki, islimiy naqshlar geograqik xarakterga ega bo‘lar ekan. Girixni yana bir afzalligi shundaki, u baynalminal, geografik xarkterga ega emas: shu bois u vatan tanlamay er yuzining hamma qit’asida o‘z o‘rnini topa oladi.

ANDAZALAR.

Hurmatli o‘quvchilar, girix son-sanoqsiz chiziqlar vositasida yasalishi sababli, uni tushunish yoki biron kimsaga tushuntirish qiyin. SHuni hisobga olib quyida o‘quvchiga tushunish oson bo‘lishi uchun chizmachilikda uchraydigan bizga zarur bo‘lgan ba’zi bir chizmalarni eslatib o‘tishlikni lozim topdik. Girixlarni yasash uchun yoylar va aylanalar teng bo‘laklarga bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Aylananing oltita, o‘n ikkiga, yoki sakkizga va o‘n oltiga bo‘lish oson. Lekin o‘nga, yoki beshga bo‘lish biroz muraqqab. Ba’zan aylananing bir qismiga nusxa chizishga to‘g‘ri keladi. Masalan: ship yoki devorga ishlanadigan kompazitsiyani o‘z o‘lchamida butun chizishga imkon yo‘q. Bunday vaziyatda o‘z o‘lchamidagi aylananing (girix talabiga ko‘ra) masalan, undan bir, sakkizdan bir, o‘n oltidan bir yoki o‘n ikkidan bir o‘ismini chizishga to‘g‘ri keladi. Unutmaslik kerakki taqsim nisbati aniq o‘lchamda bajarilishi shart. Aks holda kompazitsiya buziladi. SHuning uchun andoza yasab olish maqsadga muoffiydir. Biz quyida aylanalarini sakkizdan bir, qndan bir va qn oltidan bir qismini chizishni ko‘rib chiqamiz. Gorizontal chiziq chizib unda O nuqtani tanlab, nuqtadan vertikal chiziq OE ni chizamiz. So‘ngra O dan ixtiyoriy radiusga yoy chizamizda istalgan 180 ni sakkizga bo‘lamiz. O nuqtadan OE ni ikki tomonidagi chiziq orqali chiziqlar o‘tkazamiz, aylana radiusi bilan O nuqtadan yoy chizib A va V nuqtalarni topamiz. 90 li burchaklarni ham teng bo‘laklarga bo‘lish uchun andoza yasab olish ishni osonlashtiradi. Perpendikulyar- ikki to‘g‘ri chiziq 90 burchak xosil qilib kesishib o‘tishi yoki bir to‘g‘ri chiziqqa ikkinchi to‘g‘ri chiziqni 90 burchak xosil qilib kelib taqalishi perpendikulyar deyiladi. SHakl 3 va 4. Beshburchakli, oltiburchakli va sakkizburchakli yulduzlarni turlicha ko‘rinishi.

AV KESMA ASOSIDA MUNTAZAM O‘N IKKI BURCHAK YASASH.

Tanlangan nuqtadan o‘n ikkita nur taratamiz. AV kesmani qoq o‘rtasini nur taralgan nuqtaga to‘g‘irlab gorizontal chiziq chizamiz. Nur taralgan nuqta orqali vertikal chiziq o‘tkazamiz. (Bu vertikal chiziq yaqin joylashgan ikkita nurni qoq o‘rtasida o‘tishi shart). So‘ngra A va V dan vertikal chiziqlar chizamiz. Bu chiziqlar nurchiziqqa taqalgan nuqtasi bilan nur taralgan nuqtagacha bo‘lgan oraliqni radius qilib nur taralgan nuqtadan aylana chizamiz. Aylana nurchiziqlarni kesib o‘tib ikkita nuqtani vujudga keltiradi. SHu nuqtalarni ketma-ket tutashtirsak, muntazam o‘n ikki burchak xosil bo‘ladi.

AYLANA VA YOYLAR MARKAZINI TOPISH.

Naqqoshlikda aylana yoki yoylarni markazini topish zarurati uchrab turadi, quyida aylana va yoylarni markazini topish xaqida to’xtalib o‘tamiz. Aylanani markazini topish-buning uchun aylanada oralig‘i ixtiyoriy uchta nuqta tanlab bu nuqtalarni tqg‘ri chiziqlar vositasida ketma-ket tutashtiramiz. Keyin ikki nuqta oralig‘ini yarmidan katta radusda har bir nuqtadan yoylar kesishtiramiz. Yoylarni tutashgan nuqtalari orqali chiziqlar o‘tkazamiz. Bu chiziqlar O nuqtada kesishib o‘tadi. Topilgan O nuqta aylanani markazidir. Yoyini markazini topish xam aynan shuni o‘zi-ya’ni ikki chiziqni kesishib o‘tadi. Topilgan O nuqta aylanani markazidir. YOyni markazini topish xam aynan shuni o‘zi-ya’ni ikki chiziqni kesishib o‘tgan O nuqtasi yoyini markazidir.

AYLANANI UCHGA BO‘LISH.

Aylanada A nuqta tanlaymizg‘da, A dan aylana markazi orqali chiziq o‘tqizib E nuqtani topamiz. E dan aylana radiusini o‘lcham qo‘yib, V va S nuqtalarigni topamiz.

YOY VA DIAMETR.

Radius deb har bir aylana yoki yoyni markazi O dan aylana yoki yoyini yasovchi chizigigacha bo‘lgan o‘lchamni aytiladi. Radius R bilan belgilanadi.

KVADRATNI MARKAZINI TOPISH.

Kvdratga AS va VD dioganallarini o‘tkazsak, AV va VD diogonallarni kesishib o‘tgan nuqtasi O kvadratni markazi bo‘ladi.

URINMA

Aylana yoki yoylarga to‘g‘ri chiziq, aylana bilan, aylana bilan yoy yoki yoy bilan urinib o‘tishi urinma deb ataladi

TUTASHTIRISH

Ikki nuqtani to‘g‘ri chiziq vositasida ulanishini tutashtirish deb ataymiz. Masalan quyida oltita nuqtani tutashtirilganini ko‘ring.

KVADRAT ICHIDAGI MUNTAZAM SAKKIZ BURCHAKNI YASASH.

Kvadrat diogonallarini yarmiga teng radius bilan burchaklardan yoylar chizib 1,2,3,4,5,6,7 va 8 nuqtalarni topamiz va bu nuqtalarni ketma – ket tutashtiramiz.

NURCHIZIQ YOKI NUR

Bir nuqtadan atrofga bir xil oraliqda to‘g‘ri chiziqlar taratilsa u quyoshni yoki lampochkadan taralayotgan nurni eslatadi. SHu bois bir nuqtadan atrofga yoki biron burchakdan taralgan to‘g‘ri chiziqlarni nurchiziqlar yoki qisqa qilib nur deb atymiz. Yuqorida zikr qilinganidek taralgan to‘g‘ri chiziqlar oralig‘i bir xil qlchamdada bo‘lishi shart. Agar biron burchakdakdan taralgan bo‘lsa kamida ikkita chiziq bo‘lishi shart.

CHizmani o‘qish yoki tushuntirish uchun nurlarni tartib nomerlariga e’tibor berish zarur. Nurchiziqlarning tartib nomeri soat strelkasi yo‘nalishi kabi chapdan o‘nga qarab belgilaymiz.

Agar to‘rtta burchakni xammasidan nurchiziqlar taratilgan bo‘lsa uni tartib nomerini shakl 16 da ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi.

Ba’zi bir girixlarni echimini topish uchun kvalratni burchaklaridan nurchiziqlar taratamiz. Nurchiziqlar bir-birini kesib o‘tib bir qancha nuqtalarni

vujudga keltiradi. SHu topilgan nuqtalarni muayyan tartibda tutashtirib chiqish natijasida girix yasaladi. SHakl 18.

Yasaladigan girix talabiga ko‘ra ba’zan kvadratni burchaklaridan uchtadan nurchiziqlar chiqaramiz.

Birinchai nurchiziqlar uchun, ikkinchi nurchiziqlar uchinchi nurchiziqlarni o‘zi kifoya. Ikkinchi va uchinchisiga xojat yo‘q. SHakl 17, shakl 19 ham shu kabi.

NURNI SINIB QAYTISHI.

Nur nihoyatda to‘g‘ri yo‘naluvchidir. U biror satxga yoki biron jismga taqalsa, o‘sha taqalgan nuqtasidan sinib qaytadi. Masalan quyosh nuri bir ko‘zguga tushsa u qancha qiyalikda tushgan bo‘lsa o‘shancha qiyalikda sinib qaytadi.

SHu qonuniyat girix atalmish xandasiy naqshda tez tez uchrab turadi.

Girix deyarli chiziqlardan tashkil topadi. Agar biron chiziq taqsim chetiga borib taqalsa o‘sha nuqtadan sinib davom etadi. Biz buni quyida ko‘rib o‘tamiz (21 shakl a).

AV tekislikda 30 nur tushib L nuqtada sinib yana 30 da davom etadi. Geometriyadan bizga ma’lumki bir bir to‘g‘ri chiziq ikkinchi to‘g‘ri chiziqni kesib o‘tar ekan necha gradus burchak xosil qilib tarqalgan bo‘lsa o‘shancha garadus burchak xosil qilib chiqib ketadi. Ana shu qonuniyatga asoslanib b) shaklda nurni sinishini aniqlaymiz. Masalan AV chiziqni nurchiziq L nuqtada kesib o‘tdi.

Necha gradus burchak xosil qildi bilmaymiz nuqtadan ixtiyoriy o‘lchamdagi radius bilan yoy n va a nuqtalarni topamiz. an ni a nuqtalarni topamiz. An ni a nuhtadan yoyga o‘lchab qo‘yib m nuqtani topamiz. So‘ngra L dan m orqali to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz.

AYLANANI OLTITA VA O‘N IKKIGA BO‘LISH.

Ixtiyoriy o‘lchamda aylana chizib aylana radiusini aylanaga o‘lchab qo‘yib chiqsak, aylana teng oltiga bo‘linadi. Aylananing xar bir bo‘lagini teng ikkita bo‘lib chiqsak aylana o‘n ikkiga bo‘linadi. Aylananing o‘n ikkiga bo‘lishni oson usuli,

oldin aylana markazi orqali xam vertikal xam gorizontal chiziqlar o‘tkazib A, B, C va D bilan belgilaymiz. So‘ngra shu nuqtalardan aylana radiusida aylanaga yoy kesishtiramiz.

AYLANANI SAKKIZ VA O‘N OLTIGA BO‘LISH.

Aylana markazidagi O orqali xam vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tkazib AVCD nuqtalarni topamiz. SHu nuqtalar oralig‘ini teng ikkita bqlsak aylana sakkizga bo‘linadi. SHu oraliqlarni yana ikkitadan bo‘lsak aylana 16 ga bo‘linadi.

AYLANANI O‘NGA BO‘LISH.

Buni eng sodda va eng oson yo‘li aylanani markazi orqali AV chizig‘ini o‘tkazib aylanani teng ikkiga bo‘lamiz-da, A va V gacha bo‘lgan yoyni teng beshga bo‘lamiz. Buning uchun) oyog‘ini ochib A dan V gacha bo‘lgan yoyni teng beshga bo‘lamiz. Buning uchun pargor (sirkul) oyog‘ini ochib A dan V gacha bo‘lgan yoyni teng beshga bo‘lamiz. Buning uchun pargor (sirkul) oyog‘ini A dan V gacha bo‘lgan yoy chizig‘iga qo‘yib chiqamiz. Teng beshga bo‘linmasa chizmaga qarab pargor oyog‘ini ochib yoki keraklicha qisqartirib ikki, uch qisqartirganimizda A va V gacha bo‘lgan yoyni teng beshga bo‘lishimiz mumkin. Keyin shu bo‘lakni ketma ket qo‘yib chiqsak aylana teng o‘nga bo‘linadi.

AYLANANI ETTIGA BO‘LISH VA MUNTAZAM ETTI BURCHAK YASASH.

Aylanaga AV diafragma chizib A nuqtadan aylana radiusi bilan yoy chizib E nuqtani topamiz. So‘ngra E nuqtadan AV ga perepndikulyar chizib F nuqtani topamiz. aylanai teng ettita bo‘ladi. Masalan: EF ni V nuqtadan boshlab aylanaga o‘lchab qo‘yib 1,2,3,4,5,6 nuqtalarni belgilaymiz. V dan boshlab nuqtalarni tutashtirib chiqsak muntazam etti burchak vujudga keladi.

AV KESMA ASOSIDA MUNTAZAM OLTIBURCHAK YASASH.

AV kesmaga teng radius bilan aylana A va V dan yoylar chizamiz. YOylar O nuqtada kesishib o‘tadi. Biz O nuqtadan turib aylana chizamiz-da, shu radius bilan aylanaga yoylar kesishtiramiz. So‘ngra nuqtalarni ketma-ket tutashtirib chiqamiz.

BERILGAN AV KESMA ASOSIDA MUNTAZAM SAKKIZ BURCHAK YASASH.

Berilgan AV kesmani teng bo‘lib o‘tuvchi perpendikulyar o‘tkazamiz nuqtani topamiz A ni radius qilib N nuqtadan yoy chizib E nuqtadan topamiz. AE ni tutashtiramiz-da, AE ni radius, qilib E nuqtan yoy chizib O nuqtadan topamiz. A bilan O ni tutashtiramiz. So‘ngra AO ni ni radius qilib O nuqtadan aylana chizamiz. Keyin shu aylanaga AV o‘lchamni qo‘yib nuqtalarni tutashtirib chiqamiz.

Bitiruv malakaviy ishimni amaliy qismida telefon taglik va uni geometrik naqshlar bilan bezash texnologiyasi mavzusida bo‘lib, birinchi navbatda men telefon taglikning chizma konstruksiyasini chizib oldim. Unga mashtab bo‘yicha kerakli o‘lchamlarni qo‘yib chiqdim. Uni yasash uchun kerakli hom ashyolarni tanladim va duradgorlik ishlarini amalga oshirdam. Qog‘ozga belgilangan o‘lchamda andozalar olib, Girixni yasashni 35 turi bo‘yicha naqsh kompozitsiyasi bir necha eskizlarni ishlab chiqib bitiruv malakaviy ishi rahbariga taqdim qildim. Tasdiqlagan eskiz bo‘yicha hato kamchiliklarni to‘g‘irlab telefon taglich uchun axta tayyorladim. Kompozitsiya eskizini tayyorlash jarayonida girix yasashni chuqur o‘rganishga to‘g‘ri keldi ular quyidagilardan iborat :

***Girixlarni yasash*.** Kvadratni bursaklardan ikkitadan nurchizqlar chiqaramiz. Birinchi nupchiziqlarning taqsimning chetiga borib taqalguncha davom ettiramiz.

2. Bu chizmani to‘rt barobar ko‘paytirish kerak. Kvadratga Vd dioganali ni o‘tqazamizda, A va S nuqtalardan uchtadan unrchiziqlar taratsak chiziqlar kesishib, o‘tib 1,2,3,4,5,6 nuqtalrni vujudga keltiradi. Endi chizmaga qarab girixni yasovchi chiziqlarni o‘g‘onlashtiramiz.

3.Kvadratni D nuqtasidan uchta nur chiziq taratamiz. V da nuqtadan ham uchta nurchiziq taratamiz. AS diogonalini o‘tqazamiz. D dan tarqalgan birinchi nurchiziq A va V ga V nuqtadan tarqaladi. V bilan V dan yoy chizib 2 va 3 nuqtalarni topamiz. 2 nuqtani birinchi va uchinchi nurchiziqlarni dioganalda kesishgan nuqtasi bilan tutashtiramiz. So‘ngra girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **4.** Kvadratni V va D nuqtalaridan uchtadan nurchiziqlar taratib, 1, 2, 3, 4 nuqtalarni topamiz. 1 bilan V oralig‘icha radiusda V nuqtadan yoy chizib 5 nuqtani topamiz. V bilan 3

oralig‘ini VD ga o‘lchab qo‘yib 6 nuqtani topamiz. Endim nuqtalarni tutashtirib girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **5.** Kvadratga VD dioganalini o‘tkazamiz. AV ni radius qailib D nuqtadan yoy chmzmb a va v nuqtalarni topamiz. AV ni V nuqtadan o‘lchab qo‘yib n nuqtani topamiz. Keyin a va v nuqtalardan n nuqta orqali chiziqlar qtkazamiz. Yoylarni diogonal bilan kesishgan nuqtasi A va s bilan tutashtiramiz. **6.** Kvadrat burchaklaridan uchtadan nurchiziqlar taratamiz. Nu4rchiziqlar bir-biri bilan kesishib o‘tib kvadrat ichida sakkiz burchakli yulduz paydo bo‘ladi. Keyin chizmada ko‘rsatilganidek girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **7.** Kvadrat markazi opqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. AS dioganalini o‘tqazib shu dioganallarni yarmiga teng radius bilan A va S nuqtlardan yoylar chizamiz va yoylarni uchlarini tutashtiramiz. Kvadrat markazi orqali vertikal va gorizontal chiziqlar o‘tqazib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni topamiz. 1 va 2 va 3 nuqtalardan gorizontal chiziqlar chizamizda so‘ngra chizmaga qarab girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **8.** Kvadrat dioganallar o‘tqaziyu kvalrat markazi orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. So‘ngra kvadrat chetlariga urinma qilib aylana chizsak aylana dioganallarin kesib o‘tadi. CHizmaga qarab nuqtalarni tutashtirsak kvadrat ichida sakkiz bkrsakli blduz paydo bo‘ladi. YU lduzni botiq burchaklaridan dioganallarga parallel chiziqlar chizamiz. Bu chiziqlar taqalib to‘xtaydi. Ana end chizmaga qarab girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘oglashtiramiz. **9.** A va S nuqtalardan uchtadan nurchiziqlar taratib 1, 2, 3, 4, 5 va 5 nuqtalarni topamiz. Diogonali yarmiga teng radius bilan V va D nuqtalardan yoylar chizib 7, 8, 9 va 10 nuqtalarini topamiz. So‘ngra chizmada ko‘rsatilgan tartibda nuqtalarni tutashtiramiz. 8 va va 10 nuqtalardan vertikal chiziqlar chizamiz. 7 va 9 nuqtlardan gorizontal chiziqlar keyin girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **10.** Kvadratni burchaklaridan ikkitadan nurchiziqlar taratamiz. Kvadrat markazi orqali ikkinchi nurchiziqlarga parallel chiziqlar o‘tqazib 1, 2, 3t va 4 nuqtalarni topamiz. Bu chiziqlar kvadrat ichida kvalratni vujudga keltiradi. SHu kichik kvadrat markaz orqali dioganallar o‘tqazib. 5, 6, 7 va 8 nuqtalarni topamiz. So‘ngra nuqtalarni chizmada ko‘rsatilganidek tutashtiramiz. 1 nuqta bilan a oralig‘iga teng radius bilan 1,2, 3 va 4 nuqtalardan yoylar chizamiz.

YOrdamchi chiziqlar bilan yoylar bo‘lingan nuqtalar orqali chiziqlar o‘tkazamiz. Nixoyat girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **11.** Kvadrat dioganalini yarmini radius qilib A nuqtadan yoy chizib 1 nuqtadani topamiz. 1 bilan D oralig‘icha radius bilan A, V, S va D nuqtalardan yoylar chizib yoki kvadrat tomonlarga yoy kesishtirib 1, 2, 3, 4,5,6, 7 va 8 nuqtalarni topamiz. SHu nuqtalarni chizmada ko‘rsatilgan tartibda tutashtirib chiqamizda girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **12.** Kvadrat bursaklaridan uchtadan nurchiziqlar taratib 1,2,3 va 4 nuqtalarni topamiz. **13.** Kvadratni burchaklaridan uchtadan nurchiziqlar taratib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni topamiz. So‘ngra chizmaga qarab nuqtalarni tutashtib chiqamiz. **14.** Kvadrat dioganallar o‘tqazamizda kvadrat markazi orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar shtqazamiz. D nuqtadan uchta nurchiziq chiqaramiz. A D ga parallel chiziq o‘tqazib 1 va 2 nuqtalrni topamiz. So‘ngra 1 va 2 nuqtalardan AV ga parallel chiziqlar chizib dioganallarda 3 va 4 nuqtalarni topamiz. 3 bilan 4 nuqtani tutashtiramiz. Ana endi girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **15.** Kvadrat dioganallarini o‘tkazamiz. Dioganallarni yarmicha o‘lchamni A,B,C,D nuqtalardan kvadrat tomonlariga o‘lchab qo‘yib SE,F,L,H,T,K,M va N nuqtalarni topamiz. So‘ngra AE o‘lchamni A va S nuqtalardan o‘lchab qo‘yib 1 va 2 nuqtalarni topamizda nuqtalarni chizmada ko‘rsatilagn tartibda tutashtiramiz. Endi 1 nuqta orqali NK va LT parallel chiziqlar o‘tqizib girixni chsovchi chiziqlarni yqg‘onlashtiramiz.

16. Kvadratni A nuqtasidan nurchiziq taratib E va F nuqtalarni topamiz. ES ni radius qilib S nuqtadan yoy chizamiz. SHu yoyga urinma qilib A nuqtadan yoy chizib H va L nuqtalarni topamiz. So‘ngra H bilan F va E bilan nuqtalarni tutashtiramiz. Keyin F va H nuqtalardan EL parallel chiziqlar chizamiz. E va L nuqtalardan HF ga parallel chiziqni yo‘g‘onlashtiramiz.

17. Kvadratni dioganallarini o‘tkaztb kvadrat markaz orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tkazib 1 nuqtani topamiz AV ni yarmiga teng radius bilan A,B,C va D nuqtalardan yoylar chizib 2,3,4,5,6,7 va 8 nuqtalarni topamiz. SHu radius bilan kvadrat markazidan AS diogonaliga yoy kesishtirib 9 va 10 nuqtalarni topamizda chizmada ko‘rsatilganidek nuqtalarni tutashtiramiz. Endi AV ni yarmidan

kamroq radius bilan V va D nuqtalardan yoylar chizib 11 va 12 nuqtlarni topamiz va bu nuqtalar bilan yoylar uchlarini tutashtiramiz. **18.** Kvadrat yasab AV ni radius qilib D nuqtadan yoy chizamiz. SHu yoyga urinma qilib V nuqtadan yoy chizib 1, 2 va 3 nuqtalarni topamiz. 1 nuqtadan ham vertikal ham gorizontal chiziqlar chizib 4 va 5 nuqtlarni topamiz 1 bilan 4 nuqta oralig‘icha radius bilan 1 nuqtadan yoy chizib 6 nuqtani topamiz. Endi chizmada ko‘rsatilganidek nuqtalarni tutashtiramizyu. 4 va 5 nuqtalarda chiziqlar sinib qaytadi. Nixoyat girixni yasovchi chiziqlar yo‘g‘onlashtiramiz. **19.** Kvadratni A nuqtasidan uchta nurchiziq taratib E va F nuqtalarga VE ni radius ni qilib E va F dan yoylar chizib 1, 2 va 3 nuqtalarni topamiz. V va D nuqtalaridan 1 nuqta orqali chiziqlar o‘tkazamiz. 2 va 3 nuqtalar orqali AS ga parallel chiziqlar o‘tqazib 4 va 5 nuqtalarni topamiz va 4 va 5 nuqtani tutashtiramiz. So‘ngra 2 nuqta orqali AV nuqtaga, 3 nuqta orqali AD ga parallel chiziqlar o‘tqazamiz. **20.** Kvadratga dioganallar o‘tkazamizda dioganallarni yarmiga teng radius bilan A va S nuqtalardan yoylar chizib 1, 2, 3 VA 4 nuqtalarni topamiz. 1 bilan 2 3 bilan 4 nuqtalarni ham vertikal ham gorizontal chiziqlar chizib AS da 5 va 6 nuqtalarni topamiz. A bilan 5 nuqta oralig‘icha radius bilan A va S nuqtalardan yoylar chizib 7, 8, 9 va 10 nuqtlarni topamiz. Keyin 9 bilan 10 bilan 8 nuqtalarni tutashtiramiz. Kvadrat markazi. Oraqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. E bilan 1 nuqta oralig‘ini yarmiga teng radius bilan E va F nuqtalardan yoylar chizamiz. Endi girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **21.** Kvadratni A nuqtasidan uchta nurchiziq taratib E va F nuqtalarni topamiz. AV ni radius qilib A nuqtadan yoy chizib 1 nuqt 2, 3 va 4 nuqtalarni topamiz. V va D dan 1 nuqta orqali chiziqlar o‘tqazamiz. So‘ngra 1 nuqta bilan 2 va 4 nuqtalarni tutashtiramiz. 2 va 3 nuqtalardan AE ga, 3 va 4 nuqtalardan AF ga parallel chiziqlar chizamida girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **22.** Kvadratga dioganallar o‘tkazib AV teng radius bilan A va D dan yoy kesishtirib E nuqtani topamiz. E nuqta orqali AS va VD ga parallel chio‘ziqlar o‘tkazib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni topamiz. 1 va 2 nuqtalardan VD ga parallel chiziqlar chizib 5 va 6 nuqtalarni topamiz. 5 bilan 6 nuqtani tutashtiramiz. 3 bilan 4 nuqtalardan As ga parallel chiziqlar chizib 7, 8, 9 va 10 nuqtalarni topamiz. A bilan 7 nuqta oralig‘ida radius bilan A dan yoy chizib 11

nuqtani topamiz. SHu nuqtadan ham vertikal ham gorizontal chiziqlar chizamizda so‘ngra girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **23.** Kvadratni A nuqtasidan uchta nurchiziqlar taratamiz. AV o‘lchamni a nuqtadan AS ga o‘lchab qo‘yib E nuqtani topamiz. V bilan E va bilan D nuqtalarni shtrix chiziqlar bilan tautashtiramiz. VE va ED shtrix chiziqlar nurchiziqlar bilan kesishib L va H nuqtalarni vujudga keltiradi. DH ni radius qilib D nuqtadan yoy chizib 2 va 3 nuqtalarni topamiz. 2 nuqta orqali nurchiziqlarga parallel chiziqlar o‘tqazib 4, 5, 6 va 7 nuqtalarni topamiz. 3 bilan 6 va 4 bilan 5 nuqtlarni tutashtiramiz. Lnuqta orqali gorizontal H nuqtalar orqali chiziq o‘tqazamiz. S bilan 5 nuqta oralig‘ini radiusi qilib S dan yoy chizib 8 nuqtani yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **24.** A nuqtadan uchta nurchiziq taratib E va F nuqtani tutashtiramiz. B bilan D ni tutashtirib AE da 1, AF da 2 nuqtani topamiz. VE ni radius chizib 3, 4, 5 va 6 nuqtalarni topamiz. 1 bilan 3 va 2 bilan 4 nuqtlarni tutashtiramiz. End 1 orqali vertikal chiziqlar chizamiz. 5 bilan 6 nuqtani tutashtiramiz. 3 nuqta bilan 4 nuqtani tutashtirib, 7 va 8 nuqtlarni topamiz. 5 bilan 7, 6 bilan 8, 1 bilan 8 , 2 bilan 7 nuqtalarni tutashtiramiz. 7 nuqtadan vertikal , 8 nuqtadan gorizontal chiziqlar chizamiz. Nixoyat, girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **25.** A nuqtadan uchta nurchiziq taratib E va F nuqtlarni topamiz va E bilan F nuqtani tutashtiramiz. VE ni radius qilib E va F nuqtalardan yoylar chizib 1 va 2 nuqtlarni topamiz. V va D ni tutashtiramiz 1 va 2 nuqtalardan AS ga parallel chiziqlar chizamiz. E va F dan AS ga parallel chiziqlar chizib 3 va 4 nuqtalarni topamiz. Keyin 3 va 4 nuqtalar orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. AS ni VD kesib o‘tgan erida VD chiziq sinib o‘tadi. 4 va 3 nuqta oldida ham chizih sinib o‘tadi. **26.** A,B,C va D nuqtalrdan uchtadan nurchiziqlar taratib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni toapmiz. 1 nuqtadan V dana taralgan uchinchi nurga parallel, 2 nuqtani A dan taralgan birinchi nurga parallel va 4 nuqtadanS dan taralgan birinchi nurchiziqqa parallel chiziqlar chizamiz. So‘ngra chizmaga qarab girixni yasovchi chiziqni yo‘g‘onlashtiramiz. **27.** BD dioganalini o‘tqazib A va C nuqtalardan uchtadan nurchiziqlar taratamiz. Kvadrat markazi orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazib, E, L, F, va H nuqtalarni topamiz. VE ni radius qilib V va D nuqtalardan yoylar chizib 1 va 2

nuqtalarni topamiz. 1 nuqtani E va L bilan, 2 nuqtani H F bilan tutashtiramiz. AE ni radius qilib O markazdan VD dioganalga yoy kesishtirib N va M nuqtalarni topamiz. So‘ngra H va F dan N orqali chiziqlar o‘tqazamiz. E va L dan M nuqta orqali chiziqlar o‘tqazamiz. Ef A nuqtadan taralgan birinchi nurni nuqtada kesib o‘tadi. Ee ni radius qilib nuqtadan yoy chizib 3 nuqtani topamiz. A bilan 3 nuqta oralig‘icha radius bilan a va S nuqtalrdan yoylar chizib 4, 5 va 6 nuqtalarni topamiz. Ana endi 3, 4, 5 va 6 nuqtalar orqali AS parallel chiziqlar o‘tqazamiz. So‘ngra 3 va 6 nuqtalar orqali vertikal, 4 va 5 nuqtalar oraqali gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. **28.** Kvadratni xamma burchaklaridan beshtadan nurchiziqlar taratamiz. (shakl a) va grix chiziqlarni qayiladigan nuqtalarini belgilab so‘ngra shu nuqtalar orqali girix chiziqlarni chizamiz. **29.** Kvadratga A S va VD dioganalini o‘tqazamiz va kvadrat markazi orqali ham vertikal ham gorizontal chiziqlar o‘tqazib E, F, H va L nuqtalarni topamiz. A E ni radius qilib O markazidan dioganallarga yoy kesishtirib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni topamiz. Keyin chizmada ko‘rsatilagn tartibda nuqtalarni tutashtirib chiqamiz. E’tibor berib qarasak kvadrat ichida kvadrat hosil bo‘ladi. Uni burchaklarini 5, 6 , 7 va 8 bilan belgiladik. 6 nuqtadan va 8 nuqtadan AS ga parallel chiziq chizib 9 va 11 nuqtalarni topamiz. 5 va 7 nuqtalardan VD ga parallel chiziqlar chizib 10 va 2 bilan 10 nuqtalarni tutashtiramiz. So‘ngra 5 dan 6 orqali 6 dan 7 orqali, 7 dan 8 orqali va 8 dan 5 orqali chiziqlar o‘tqazamiz girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **30.** A nuqtadan uchta nurchiziq taratib E va F nuqtalarni topamiz. E bilan D ni tutashtirib AS 1 nuqtani topamiz. A bilan 1 oralig‘ini radiusi qilib a nuqtadan yoy chizib 2 va 3 nuqtalarni topamiz. 2 bilan 1, va 1 bilan 3 nuqtalarni topamiz. A bilan 4 oralig‘icha radius bilan A nuqtadan yoy chizib va 6 nuqtalarni topamiz. So‘ngra 4 va 5 nuqtalardan AE ga parallel chiziq chizib 7 nuqtani topamiz. Endi 7 nuqtadan 2 bilan 1 ni tutashtirgan chizig‘i parallel, 8 nuqtadan 1 bilan 3 nuqtani tutashtirgan chiziqqa parallel chiziq chizamizda girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **31.** Kvadratni a nuqta uchta nurchiziq taratamiz. VD dioganlini o‘tqizib 1 va 2 nuqtlarni topamiz. 1 va 2 nuqtalar orqali AS ga parallel chiziqlar o‘tqazib 3, 4, 5 va 6 nuqtalrni topamiz. 3 bilan 4, 5 bilan 6 nuqtalarni tutashtiramiz. 3 nuqta bilan D va V 4 nuqtalarni tutashtirib 7 va 8

nuqtalrni topamiz va tutashtiramiz. 1 nuqta orqali vertikal va 2 nuqta orqali gorizontal chiziqlar o‘tqazamiz. Endi girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz. **32.** A va S nuqtalardan uchtadan nurchiziqlar taratamiz. VD dioganlni o‘tqazamiz. Kvadratga urinma qilib aylana chizamiz va aylanai muntazam sakkiz burchakka aylantiramiz. AV ni yarmiga teng radius bilan A va s nuqtalardan yoylar kesishib 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni beradi. Aylanaga urinma qilingan yoylar uchlari 5, :.? Va nuqtalarni beradi. So‘ngra 2 bilan 8 , 1 bilan 7, 3 bilan 5 va 4 bilan 6 nuqtalarni tutashtiramiz. Keyin 1, 2, 3 va 4 nuqtalarni muntazam sakkiz burchakni bir tomoniga parallel chiziqlar chizamiz. **33.** A va S nuqtalardan uchtadan nurchiziqlar taratmiz va VD dioganlini o‘tkazamiz. Birinchi va uchinichi nurchiziqlar VD da a va e nuqtada to‘qnashadi. A va e nuqtalardan ham 2,3 va 4 nuqtalarni topamiz. A bilan 1 nuqta oralig‘icha radius bilan a va e nuqtalardan yoylar chizib 5 va 6 nuqtalarni topamiz. So‘ngra 1 bilan 2,3 bilan 4, 2 bilan 3 va 1 bilan 4 nuqtalrni tutashtiramiz. E nuqtadan chizilgan aylanaga urinma qilib A va S nuqtadan yoylar chizib 7, 8, 9 va 10 nuqtalarni topamiz. 7, 8, 9 va 10 nuqtalar orqali As ga parallel chiziqlar o‘tqazib 11, 12, 13 VA 14 Nnuqtalarni tutashtiramiz.. Keyin 7 va 10 nuqtalar orqali chizilgan chiziqlarning 1 bilan 3 nuqtalrni tutashtirib turgan chiziqqa taqalgan eridan gorizontal davom etdiramiz. Xuddi shu kabi 8 va 9 nuqta orqali chizilgan chiziqni 2 bilan 4 nuqtlarni tutashtirib turgan chiziqqa taqalgan nuqtasidan vertikal davom etdiramiz. **34.** Kvadrat dioganallarini o‘tqazamiz. Dioganalni yarmiga teng radius bilan O va D nuqtalardan turib yoylarni kesishtirib shu nuqtani O bilan tutashtirib F nuqtani topamiz. SF ni radius qilib, A,V,S va D nuqtalrdan yoylar chizamiz. Yoy uchlarini tutashtirib 1, 2, 3 va 4 nuqtlarni topamiz. So‘ngra 1,2, 3 va 4 nuqtalarni ketma-ket tutashtiramiz. A va s nuqtalardan chizilgan yoylar uchlarini tutashtiramiz. V va D nuqtalardan chizilgan yoylar uchlarini ham tutashtiramiz. Ana endi chizmaga qarab girixni yasovchi chiziqlarni yo‘g‘onlashtiramiz.

2.2. Kasb-hunar kollejlarida amaliy san’at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

AutoCAD 2007 - grafik dasturining ishchi stolida chizilgan chizmalarni ranglash uchun **«CHerchenie»** buyruqlar panelida **«Perexod»** buyrugining piktogrammasi joylashgan bO‘lib, u tayyor naqshlarni ranglash imkonini beradi. Girih naqshini chizib bO‘lgandan sO‘ng ranglash bosqichi keladi. SHunda biz **«Perexod»** buyrugidan foydalanamiz. Ekranda **«SHtrixovka i gradient»** darchasi paydo bO‘ladi, 113- rasm.



113- rasm

Darchadagi 

tugmasini bosamiz va bO‘yalishi kerak bO‘lgan yuzalarni biror ichki ihtiyoriy nuqtasini belgilaymiz va **Enter** tugmasini bosib tasdiqlaymiz. SHundan sO‘ng ekranda dastdabki **«SHtrixovka i gradient»** darchasi paydo bO‘ladi, undan **«Svet»** qismidagi **«Odin svet»** tugmasini bosib **«Vыbor sveta»** darchasini yuklaymiz, 114- rasm..



114- rasm



115- rasm

Mazkur darchada keltirilgan palitradagi barcha ranglar berilgan bo‘lib ranglash uchun istalgan rangni belgilash mumkin. Agar keltirilgan ranglardan boshqa rangni tanlamoqchi bo‘lsak **«Albomы svetov»** darchasini yuklaymiz va kerakli rangni belgilab **«OK»** tugmasini bosib dastlabki darchaga qaytamiz. Bu erda qanday tarzda bo‘yash so‘raladi keltirilgan to‘qqiz hildagi usul ichidan kerakligisini, (bizning misolimizda bo‘yaladigan qism O‘rtasi to‘qroq chetlari nisbatan ochroq) tanlab **«OK»** tugmasini bosamiz, 115- rasm. SHunda, biz belgilagan qismlar kerakli rangda bo‘yalib qoladi, 116- rasm.



116- rasm

Girih naqshini bo‘yash uchun mazkur buyruqni ketma - ket yuklab istalgan rangdan foydalanib ranglash mumkindir, 117, 118- rasmlar.



117- rasm



118- rasm

girih kompozitsiyasini yasash va bo‘yash





119- rasm 120- rasm

1. Ushbu girih kompozitsiyasini chizish uchun berilgan shablonlar orasidan 5 (b) ni belgilab ekranning kerakli joyiga kO‘chiramiz. Ikkinchi va tO‘rtinchi nur chiziqlar kesishgan joyda a va b nuqtalarni topamiz. Aa radiusda A nuqtadan hamda S nuqtalardan yoylar chizib n, i, m va h nuqtalarni topamiz. a va b nuqtalardan nurlarga urinma aylanalar n, i, m va h nuqtalardan esa yoylar chizib 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14 va 15 nuqtalarni belgilaymiz, 119- rasm.

2. 1 va 4 hamda 6 bilan 7 nuqtalar orqali AS to‘g’ri chiziqqa parallelar o‘tkazamiz. 1 va 7 nuqtadan A nuqtaning birinchi nur chiziqlariga, 4 va 6 nuqtadan S nuqtaning birinchi nur chiziqlariga parallel to‘g’ri chiziqlar O‘tkaziladi, 120-

rasm. So‘ngra 3,5,9 va 2,5,8 nuqtalar orqali to‘g’ri chiziqlar o‘tkazib, ABCD kvadrat tomonlarida bo‘lajak yarim yulduzlarning uchlari aniqlanadi. O‘rtadagi butun yulduzlarning esa hamma uchlarining tomonlari ham hosil bo‘ladi.

3. Tomonlari to‘liq shakllanmagan o‘rta yulduzchalarni 3 va 9 uchlari orqali vertikal, 2 hamda 8 uchlari orqali gorizontal chiziqlar o‘tkazamiz. Bu chiziqlar AD da kesishib o‘rtada joylashgan ikkita besh qirrali yulduz to‘liq shakllanib, ni va mn yoylari bo‘ylab davom etadigan to‘rtta to‘liq bo‘lmagan yulduzlarning uchlari va ularning tomonlari quyidagicha aniqlanadi: A nuqtadan taraluvchi birinchi nur chiziqqa 11 va 12 nuqtalardan beshinchi nurchiziqlarga esa 13 hamda 10 nuqtalardan parallel to‘g’ri chiziqlar chizamiz. Chizmaga qarab 3,5,9 va 2,5,8 nuqtalardan o‘tuvchi va kvadrat tomon tiralgan kesma uchlari hamda 14 va 15 nuqtalar orqali to‘gri chiziqlar o‘tkaziladi. Natijada, davom etuvchi yulduzchalarning uchtadan uchlari shakllanadi, 121- rasm.



121- rasm

4.Chizmaga qarab O‘zak girih taqsimini **0,50** mm yo‘gonlikda to‘qartirib chiqamiz, 122- rasm. Chizmadagi ortiqcha chiziqlarni o‘chirib tashlab 123- rasmdek 21- girih kompozitsiyasining taqsimiga ega bo‘linadi.

5.Tayyor bo‘lgan taqsimni **«Ko‘zgu»** buyrugi yordamida kerakli yuzaga moslab ko‘paytiramiz. Kompozitsiyaning bazi yuzalarini turli hil ranglarda bO‘yash ham mumkin, 124- rasm.



122- rasm



123- rasm

124- rasm

3.8.22- girih kompozitsiyasini yasash va bO‘yash



125- rasm

1. Berilgan shablonlar orasidan 5 (b) ni nushalab ekranning kerakli joyiga qo‘yamiz. Birinchi va beshinchi nurchiziqlar kvadrat uchlari bilan kesishgan joyda a, b, k va u nuqtalarni belgilaymiz. Ikkinchi va to‘rtinchi nurchiziqlar kesishgan joyda n va e nuqtalarini topamiz. Ularni birlashtirsak ikkita teng tomonli uchburchaklar hosil bo‘ladi, 125-rasm. Chizmadagi kabi bu uchburchaklarga ichki oltiburchaklar chizamiz

2. Hosil bo‘lgan oltiburchaklar tomonini davom ettirib 126- rasmdagidek 7, 8, 9 va 10 nuqtalarini topamiz. 7 bilan 8 nuqtani, 9 bilan 10 nuqtani to‘g’ri chiziq yordamida birlashtiramiz.



126- rasm

3. 9 nuqtadan vertikal chiziq chizib 11 nuqtani topamiz. 9 11 kesmaga teng radiusda 11 nuqtadan yoy chizib 12 nuqtani belgilaymiz. S bilan 12 nuqta oraligiga teng radius bilan A va S nuqtalardan yoylar chizib 13, 14, 15, 16 hamda 17 nuqtalarni belgilaymiz. S nuqtadan taralgan tO‘rtinchi nur chiziqqa 12 nuqtadan ustiga qo‘yib nurchiziqqa parallel chiziq o‘tkazib i nuqtani topamiz. S i ni radius qilib S va A nuqtalardan yoylar chizamiz hamda 126- rasmdagidek kerakli nuqtalarga ega bo‘lamiz. Chiziq yo‘g‘onligini **0,50** mm olib, to‘g’ri chiziq buyrugi yordamida chizmaga qarab nuqtalarni ketma-ket tartibda tutashtiramiz. Endi, chizmadagi kabi girihni yasovchi chiziqlarni belgilab, bu chiziqlarni ham yo‘g’onlashtiramiz, hamda ortiqcha chiziqlarni o‘chirib tashlaymiz, 127- rasm.


127- rasm

4. Taqsimni belgilab **«Zerkalo»** buyrugi yordamida kerakli o‘lchamda kompozitsiya hosil qilamiz. Tayyor bo‘lgan kompozitsiyani ko‘zdan kechirib, ortiqcha chiziqlar qolgan bo‘lsa o‘chirib **«Perexod»** buyrug‘ini yuklaymiz va bu buyruqdan foydalanib kompozitsiyani tanlangan rangda bo‘yaymiz, 128- rasm.



128- rasm

3. BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA AMALIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA TUZISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI.

O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llabkelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiyatni va voqe'likning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tamonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'saytgandek tuyuladi, lekin haqiqatda esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqshlar shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizish tushuniladi. SHuning uchun ganchkor ijodida eng qiyin va mas'uliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdir. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid bo'lsa bo'yashda va pardozda har qancha yutuqqa erishilsa ham ish ko'ngildagidek chiqmaydi.

Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, jozibador ko'rinadi, lekin birozdan so'ng undagi nuqsonlar sezilib qoladi.

Kompozitsiya nima? Kompozitsiya – lotincha so'zdan olingan bo'lib, to'qish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish. Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, assimetriya, kompanovka, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning harakatliligi tabiiyligi, chiroyliligi, pardozlarning va ranglarning o'yg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

Kompanovka (joylashtirish) – chizish kerak bo'lgan naqshni yoki biror tasvirni qog'oz ganch faner yoki biror yuzaga to'g'ri joylashtirish.

Simmetriya – grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga munosibligi.

Ritm – naqsh elementini ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

Asimmetriya – kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilishi.

Stilizatsiya – tabiatdagi o‘simlik, hayvon va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirish.

Naqsh kompozitsiya chizishda quyidagilarga amal qilish kerak:

- tanob yoki novda tagidan gul, g‘uncha, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas;
- tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;
- taqsimda ortiqcha nusxa chizib qo‘ymaslik;
- tanobdan hech qachon gul novda, g‘uncha va boshqalar o‘sib chiqmasligi;
- naqsh elementlarning nisbatini saqlash
- yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish;
- naqsh zichligiga e’tibor berish;
- naqsh orasidagi zamin bo‘shliqlar nisbatini saqlash va hokazo.

O‘rgangan naqsh elementlarimiz asosida oddiy naqsh kompozitsiyalar naqshlar tuzmoqchi bo‘lsak, avval qog‘ozga masalan, 35 x 40, 40 x 40 sm va boshqa o‘lchamda sxema chizib olib uni simmetrik to‘rt bo‘lakka bo‘lib, bir bo‘lagiga naqsh chizamiz. Bu bo‘lakni naqqoshlikda taqsim deb yuritiladi, ya’ni naqshning takrorlanadigan eng harakterli qismi.

Naqsh kompozitsiyalaridan bir nechta chizib mashq eng yaxshisini tanlab olinadi. CHetiga zanjiralardan birini hoshiya tariqasida qo‘llash mumkin.

Har bir naqshning o‘z nomi va mazmuni bo‘ladi. SHunday ekan, naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanadi va o‘ziga xos nomlanadi. Masalan. Turunj, islimi, madohili, hoshiya, yak raftor, lola hoshiya, band rumiy, islimiy guldona, islimiy madohil, xashti tufsor, sarnig‘on, tufsori qanot, turna qanot, xonagi bo‘rtma, xashti davrv, chorsar, sitora, shashdona, parrak, oftoba patnis islimi, lola islimiy, bofta islimiy, islimi shkufta, shashdona, elpig‘ich zanjira, yakka zanjira, gajak islimiy, parrak, oftoba, erkin islimiy, bodom islimiy, bodom guli, aylanma islimi, targli islimi, bargli raftor, mehrob islimi, gulli aylanma islimiy, gulli raftor islimiy, patnis gulli islimiy, 5 rahli girih, 5-10 rahli girih, 5-10-16 rahli girih gulli girih, shohbarg, islimi qo‘sh

bargli islimi, munabbat girih, munabbati gul, ruta, anorgul, morpech va boshqalar. O‘simliksimon, geometrik, ramziy naqshlarga kiradi.

Gul – naqsh so‘zi o‘rnida ham ishlatiladi. Gul so‘ziga naqshning nomi ham qo‘shib aytiladi, chunonchi guli raftor, davra gul, islimiy gul, guli yakraftor, guli seraftor, gulsun va boshqalar bo‘lib, ularning 200ga yaqin turi bor. Amaliy san’atning barcha turlarida uchraydi. Oltin, yog‘och, mis kumush o‘yib chizib yoki qabartib ishlanadi, badiiy buyumlarda o‘yma, kashta tarzida tayyorlanadi, zardo‘zlik buyumlariga va kiyimlarga zar bilan tikiladi. O‘zbekistonning milliy gullari maziundorligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Morpech – (tojikcha mor-ilon, pech-o‘ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo‘lgan islimiy hoshiya naqsh. Morpech misgarlikda mis idishlarning chetiga va ichiga, ganchkorlikda esa tokcha, namoyon, izora chetlariga hamda yog‘och o‘ymakorligida esa eshik, namoyon, stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi. Morpechni ba’zi ustalar “ilon izi” deb ham yuritadilar.

Ruta – (ruscha - bordbr) ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. CHizilayotgan naqsh nusxasining harakteriga qarab ketma-ket, to‘nkarma usullarda ulanishi mumkin. Naqqosh to‘nkarma usulda takrorlanuvchi ruta chizayotganda taqsim asosini qog‘ozga (ikkiga buklab) chizadi, axta aylantirib, undan foydalanadi. To‘nkarma ruta kompozitsiyada bir yoki ikki, ba’zan uch chiqish nuqtasi (odatda o‘rtada bo‘ladi) bo‘sh joylarni to‘latishga xizmat qiladi. Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir, ikki, uch yo‘nalishli bo‘lishi mumkin, har yo‘nalishda bittadan chiqish nuqtasi bo‘ladi. Ikki chiqish nuqtali rutalar (aylantirma nusxa) deb ataladigan kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuqtasidan chiquvchi novdalar soat yo‘nalishiga o‘xshatib, ikki nuqtani bosib o‘tadi (ya’ni ikki nuqtadan chiqqan novdalar halqa hosil qiladi). To‘ldiruvchi elementlar ham novdalarning o‘rtasiga moslab chiziladi.

Islimi duraftor – ikki yo‘nalishli ruta islimi (nibotiy) hoshiya naqsh. Islimi duravtor barg, kurtak. Gul va boshqa elementlardan tashkil topgan bo‘ladi, bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan islimi naqshlarni takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Islimi duraftor yog‘och, tosh, kumush, oltin, devorga, matoga va boshqa

narsalarga o‘yib, tikib, chizib, bo‘yab ishlanadi. Islimi duraftor xalq amaliy san’atining barcha turlarida keng tarqalgan. Uning tuzulishiga o‘xshash lekin ularning yo‘nalishlar soniga qarab yakraftor islimi (bir yo‘nalishli), seraftor (uch yo‘nalishli) islimi va chorraftor (to‘rt yo‘nalishli) islimi deb yuritiladi. Islimi duraftorni bir tomonga va har ikkala tomonga ulanadigan xillari bor. Islimi duraftorning mehrobli duraftor islimi (mehrob shaklidan tuzilgan ikki yo‘nalishli ruta islimi naqsh), gul islimi madohili duraftor (madohili shaklidan tashkil topgan ikki yo‘nalishli islimi naqsh turi) va boshqa turlari bor.

Namoyon – forscha so‘z bo‘lib, ko‘rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqe’likning umumlashgan tasviriy obrazini o‘zida aks etadi. Masalan, chamanzor, bog‘u-bo‘stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Hoshiya naqsh namoyonning badiiy qilib ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Namoyon hech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning o‘simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon naqsh kompozitsiyalar o‘ziga xos tomonlarga ega. Usta namoyonni ishlashda uning uzoqdan va yaqindan ko‘rinishini alohida hisobga oladi. Namoyon o‘simliksimon naqshdan iborat bo‘lsa, unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bo‘lib chiqadi. Gulli girihli namoyonda esa girih asosiy, o‘simliksimon naqsh esa to‘ldiruvchi rolini o‘ynaydi. Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo‘lsa undan ham asosiy va to‘ldiruvchi girihlarga bo‘lish mumkin, ya’ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo‘ladi. XIX asrning o‘rtalarida har bir vohaning namoyonlarini kuzatsak o‘ziga xos bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ya’ni naqshning harakteri ornament uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlardan bandlar bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gullar kam ishlatiladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik harakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o‘ziga xos xususiyatga o‘simlik gullarining ko‘pligidadir. Frag‘ona naqsh kompozitsiyasidatabiatdagi gullar, barglar, mevalar (lola gul, atirgul, bodomgul, majnuntol, anor va boshqalar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri

tasvirlanadi. Namoyonning majnuntol namoyon, chorsi namoyon, shabaki seraftor, mehrobli namoyon va boshqa atamalar bor.

Madohili – (arabcha so‘z bo‘lib, ostona, kirish, eshik ma’nosini bildiradi) ganch takrorlanuvchi islimiy naqsh turi. U kompozitsiyada chiqishi nuqtasi (manbai, ildizi) hisoblanadi. Madohil ko‘rinishi jihatidan xilma-xil bo‘lib, g‘uncha, lola, uchbargi va boshqa shakllardan iborat bo‘ladi. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o‘ziga xos nom qo‘yganlar. CHunonchi madohil lola (lola shaklga yaqin qilib ishlangan g‘uncha madohil naqsh turi), qo‘sh madohil (lola g‘uncha, gul va boshqa shakldagi madohilning yuqoriga), pastga qaratib chizilgan nushasi, madohil islimiy (naqsh taqsimining asosini madohil shakli egallovchi islimiy naqsh turi). Madohil naqshlar me’morchilikda, yog‘och, tosh, mis o‘ymakorligida naqqoshlikda, kashtado‘zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madohil turlari borgan sari ko‘payib bormaqda, u zamonaviy binolarda va uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda keng qo‘llanilyapti.

Tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish mezonlari asosida baholash jadvali.

№	Mezon tartibi	Ballar					
		1	2	3	4	5	eslatma
1	G‘oya						
2	Mantiq						
3	Joylashtirish						
4	“Oltin kesma” qoidasi						
5	Mutanosiblik						
6	Simmetriya						
7	Assimmetriya						
8	Nisbiylik						
9	Marom (ritm)						
10	Dinamika						
11	Uyg‘unlik						
12	Markazi						
13	Hajmi						
14	Stilizatsiya						
15	Kontrast (keskin farqlanish)						
16	Nyuans’ (nozik farqlanish)						
17	Ishlanish texnologiyasi						
18	CHiziqli perspektivasi						
19	Fazoviy kenglik						
20	Fazoviy chuqurlik						
21	Fazoviy bo‘shliq						
22	Rang perspektivasi						
23	Jozibadorligi						
24	Rang						
25	Kolorit						
26	YOrug‘lik va soya						
27	O‘lchami						
28	Asarni nomlash						
29	Ravonligi						
30	Ramziylik						
31	Asarni qaysi janrga mansubligi						
32	Holati						
33	Ufq chizig‘i						
34	Xoshiyasi						
35	Kompozitsiya echimi						
36	Kampozitsion tugallanishi						
37	Siluet						
38	Ashyolar						
39	Ko‘lamlilik						
40	Muvozanat						

Savollar

1.Ritm deganda nimani tushunasiz?

2. Naqqoshlikda stilizatsiyani o‘rni nimada?

3. Axta qanaqa tayyorlanadi?

4. Taqsimning kompozitsiyadagi o‘rni?

5. Kompozitsiyada tanob nima uchun ishlatiladi?

6. Kompozitsiyada kontrasning o‘rni?

7. Taqsim deb nimaga aytiladi?

8. Kompozitsiya termini nima ma’noni anglatadi?

9. Munabbat naqsh qanaqa naqsh kompozitsiyasiga kiradi?

10. Axta bilan ulgini farqi nimada?

11. Xoka nima o‘zi?

12. Hoshiya naqshlar nima?

13. Kundal texnikasi deganda nimani tushunasiz?

14. Naqqoshlikda turg‘unlik va harakat deganda nima tushuniladi?

15. Edirma usuli nima?

16. Naqsh kompozitsiyasida g‘oyaning o‘rni ?

17. Naqqoshlikda garmoniya deganda nima tushuniladi?

18. Turunj nima?

19. Naqqoshlikda assimetriya nima ma’noni anglatadi?

20. Ranglarning ramziy ma’nolari?

21. Koloritni qanaqa turlari bor.

22. Murakkab naqshlar qanaqa bosqichda bo‘yaladi.

23. Naqshning yorqinlik deganda nima tushuniladi.

24. “Faktur” so‘zining ma’nosini tushunitirib bering.

25. Kontras naqqoshlikda qaysi o‘rinlarda ishlatiladi.

26. Naqqoshlikda nisbat deganda nimani tushunasiz.

27. Kompozitsiyani qanaqa turlari bor.

28. Rang uyg‘unligi deganda nima tushuniladi.

29. Kompozitsiyani qonun-qoidalarni tushuntirib bering.

30. Assimetrik naqsh bilan simmetrik naqshlarni farq nimada.

1- variant

1. Ritm iborasining ta’rifi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) o‘lchovlarning bir-biriga mos kelishi (mutanosiblik).

*b) naqsh, bezak elementlarining ma’lum tartibda bir tekisda takrorlanishi.

v) ranglar qarama-qarshiligi, naqsh elementlarining takrorlanishi, ranglarni bir-biridan och to‘qligi

g) rang tusi, o‘lchovlarning bir-biriga mos kelishi.

2. Stilizatsiya so‘zining ta’rifi qaysi qatorda keltirilgan?

a) naqshga shakl beruvchi chiziq, rang tusi,

b) nomutanosiblik.

*v) narsaning rasmi, rang va shaklini dekorativ tarzda umumlashtirish.

g) naqsh elementlarining takrorlanishi, ranglarni bir-biriga munosabati va shakillarni ko‘rinishi.

3. Axta nima uchun tayyorlanadi?

*a) biror yuzaga naqshni ko‘chirish uchun ishlatiladi.

b) jilo berish uchun va naqshlarni ko‘paytirish uchun

v) nusha ko‘chirish uchun.

g) a va v qatordagi javob to‘g‘ri.

4. Taqsim deganda nimani tushunasiz?

a) naqshning asosiy qismi.

b) doira shaklidagi naqsh.

v) rang tusi.

*g) naqshning takrorlanuvchi bo‘lagi

5. Tanob nima?

a) naqsh kompozitsiyasining tuzilishi.

b) naqshning ramziy ma’nolar nomi.

*v) naqsh kompozitsiyasining asosiy yo‘l chizig‘i.

g) shkufta elementining o‘zgacha nomi.

6. Naqqoshlikda kontras nima?

a) stilizatsiya so‘zining o‘zgacha nomi.

b) kompozitsiya so‘zining o‘zgacha nomi.

v) mustaqil naqsh tuzish.

*g) ranglar qarama-qarshiligi.

7. Taqsim nima?

a) Rang bosqichi

b) Pardozlash

*v) Joylashtirish

g) Guruntlash

8. Kompozitsiya termini nima ma’noni anglatadi?

a) Qurish, tuzish, birlashtiriщ, yasash

b) Birlashtirish, o‘yish, yasash va hakozo

*v) Bir-biriga nisbatan ma’lum tartibda joylashtirish, birlashtirish

g) Mustaqil naqshlar

9. Munabbat naqsh qanaqa naqsh kompozitsiyasiga kiradi?

*a) To‘rt tomonga takrorlanuvchi naqsh turi

b) Oddiy naqsh turi

v) Bir-biriga mos kompozitsiya

g) A va V to‘g‘ri

10. Axta bilan ulgini farqi nimada?

a) Tuzilishi

b) CHiroyligi

*v) Farqi yo‘q

g) Naqshlari bilan

2-variant

1. Xoka nima o‘zi?

a) Andoza

b) Naqsh turi

v) Axta

*g) Nusha ko‘chirish uchun tayyorlangan tuguncha

2. Hoshiya naqshi deganda nima tushunasiz?

*a) Yo‘l ichidagi oddiy naqsh

b) To‘rtburchak naqsh

v) Oval naqsh

g) Uchburchak naqsh

3. Kundal texnikasi deganda nimani tushunasiz?

*a) Naqqoshlikda bo‘rtirib ishlangan naqsh texnikasi

b) Har hil ranglardan foydalanib soya berib naqsh ishlash texnikasi

v) Devorga o‘yib naqsh ishlash

g) YUqoridagilarning barchasi

4. Naqshda taqsim deganda nimani tushunasiz?

*a) Naqshning eng xarakterli takrorlanuvchi bo‘lagi

b) Xarakterli nuqta

v) Nusha ko‘chirish

g) Joylashtirish uchun chizilgan naqsh kompozitsiyasi

5. Edirma usuli nima?

a) Bo‘yash usuli

*b) Padozlash usuli

v) CHamalash usuli

g) Laklash usuli

6. Yo‘l ichidagi bir yo‘nalishli naqsh nomi nima?

*a) Mornech, yak raftori, pechak islimi

b) Namoyon, yak raftori, pechak islimi girih

v) Ruta, yak raftori,

g) Girih, pechak islimi

7. Aylana naqsh namunasi yana qanday ataladi?

a) Ruta naqsh

*b) Davra naqsh

v) Tanob naqsh

g) Murakkab naqsh

8. Turunj nima?

a) Geometrik naqshlar

b) O‘simliksimon naqsh turi

v) Aralash naqshlar

*g) Ovalsimon shaklidagi naqsh

9. Naqqoshlikda assimetriya nima ma’noni anglatadi?

a) O‘lchovlarning bir-biriga mosligini

b) Mutanosib kelishini

*v) O‘lchovlarning qarama-qarshi kelishini

g) Takrorlanib kelishini

10. Kompozitsiya termini nima ma’noni anglatadi?

a) Qurish, tuzish, birlashtiriщ, yasash

b) Birlashtirish, o‘yish, yasash va hakozo

*v) Bir-biriga nisbatan ma’lum tartibda joylashtirish, birlashtirish

g) Mustaqil naqshlar

3-variant

1. Munabbat naqsh qanaqa naqsh kompozitsiyasiga kiradi?

*a) To‘rt tomonga takrorlanuvchi naqsh turi

b) Oddiy naqsh turi

v) Bir-biriga mos kompozitsiya

g) Mustaqil naqshlar

2. Nomoyon deganda nimani tushunasiz?

a) Murakkab naqsh kompozitsiyasi

*b) Mukammallashgan mustaqil naqsh kompozitsiyasi

v) Islimiy naqsh kompozitsiyasi

g) Geometrik naqsh kompozitsiya

3. Mornech naqsh deganda nimani tushunasiz?

a) Geometrik naqsh turi

b) Islimiy naqshga o‘xshash kompozitsiya

*v) Ilon izi o‘rama ko‘rinishdagi naqsh

g) To‘rt tomonga takrorlanuvchi naqsh turi

4. Madahil naqshi qanaqa shaklda bo‘ladi?

a) Lola tasvirlangan geometrik va o‘simliksimon naqsh turi

b) Geometrik naqshni bir turi, islimiy naqshga

*v) CHapu-rost takrorlanuvchi lolasimon naqsh turi

g) Bir tomonga takrorlanuvchi naqsh

5.Epigrafika nima o‘zi?

a) CHiroyli yozuv va shakl

b) CHiroyli naqsh

v) Geometrik naqsh

*g) Unvonli yozuv, bezakli yozuv

6.Anargul nima o‘zi?

a) Anor guli tasvirlangan naqsh

*b) Anor elementidan tashkil topgan naqsh kompozitsiya

v) Anor gullaridan tashkil topgan kompozitsiya

g) Anor donlari va gullari tasvirlangan naqsh elementlari

7.Aylanma islimi deganda qanaqa naqsh tushunasiz?

a) Doira shaklidagi geometrik naqsh

b) Doira shaklidagi mustaqil naqsh

*v) Aylana shaklda ishlangan naqsh kompozitsiyasi

g) Doira, aylana shakllar asosida tuzilgan o‘simliksimon naqsh turi

8.Lola naqsh elementi nima o‘zi?

*a) Lolani eslatuvchi islimiy naqsh bo‘lagi

b) Geometrik naqsh elementi

v) Geometrik va o‘simliksimon naqsh elementlari

g) Murakkab naqsh taqsimi

9.Lola hoshiya naqshi deganda nimani tushunasiz?

a) Murakkab lola shaklidagi naqsh

b) Lola shaklidagi murakkab naqsh

v) Lolaga o‘xshatib ishlangan munabbat naqsh

*g) Lola shaklidan tuzilgan oddiy xishiyasimon naqsh

10. Tanob nima?

*a) Naqshga shakl beruvchi chiziq

b) Girih va o‘simliksimon naqshni bir turi

v) Band

g) Bofta



Oddiy naqsh kompozitsiyasinibosqichma bosqich chizish.





Oddiy naqsh kompozitsiyasinibosqichma bosqich chizish.









Oddiy naqsh kompozitsiyasi

Йўл ичидаги нақш.





Квадрат ичидаги нақш.



Айлана ичидаги нақш.



Xiva naqshlari

Xiva naqshlari

Hoshiyasimon, uchburchak, to‘rburchak va aylana shaklidagi naqsh kompozitsiyalar.



Oddiy naqsh namunalari.







Turli shakldagi bir bandli o‘simliksimon naqsh kompozitsiyalari.

XULOSA

Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining ayrim turlari, ularning o‘ziga xos tomonlari, haqiqiy o‘zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida.

SHuning uchun xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilagn tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san’at namunalarini ko‘z qorachig‘idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an’anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amalyot uslublarini joriy etish, tabiiy xomashyolar bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat’iyat, xalq amaliy san’atining qiziqarli o‘ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim tizimida ya’ni maktab, kasb-hunar kollejida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchi yoshlarni siyosiy-g‘oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go‘zallikni seza bilishga, san’at asarlarini o‘rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko‘nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

SHunday ekan, o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati va uning turlari bo‘lmish naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, kulolchilik, misgarlik, yog‘och o‘ymakorligi va darslarda o‘qituvchi barcha imkoniyatlardan samarali foydalanib, o‘z ishlarini rejali tashkil etish va tarbiyaning hamma tarkibiy qismlarini kompleks amalga oshirishga erishishi kerak.

O‘zbek xalq amaliy san’ati darslarning samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib videofilm eektron versiya, elektron darsliklardan namoyish qilish, zamonaviy axborat resurslaridan, innavatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o‘quv metodik ko‘rgazmalar tayyorlash, ekskursiv tanlovlar, viktorinalar o‘tkazish, hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ilg‘or yutuqlariga suyangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quv

moddiy bazasini mustahkamlash,mahalliy materiallardan foydalanish, ko‘rgazmalar tashkil etish, xonalarni zamonaviy jihozlanish, ta’lim-tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun didaktik tamoyillari, ya’ni ta’limni tarbiyalovchi tamoyili, ilmiylik tamoyili, muntazamlik tamoyili va ketma-ketlik, onglilik-faollik, ko‘rgazmalilik, o‘qitishning qatnashuvchilar kuchiga, yoshiga mosligi va boshqa prinsiplarga rioya qilish alohida axamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati ham san’at, ham hunar.

U asrlar mobayniad ota-bobolarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlanib kelayotgan bu amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, o‘yib, chizib, tirnab, bo‘yab ishlangan, takrorlanmas naqshlar inson idrokining, inson his-tuyg‘ularini ifodasidir. Bamisoli yog‘och, suyak, qora loy, ganch va boshqalarga jo etilgan hayot qo‘shig‘idir. Hayot qo‘shig‘i esa zamonlardan-zamonlarga baralla yangrayveradi.

Xulosa qilib aytganda asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o‘zbek milliy xalq amaliy san’ati keng tarqalgan turlarining o‘ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlari mangu yo‘qolish bo‘sag‘asida. Ana shu sababli bu noyob san’at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o‘rgatish muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1997, №9.
2. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997, №9.
3. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. – T.: Toshkent oqshomi. - 1997, 2 aprel, № 38.
4. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasi Xalq ta’limi. 1992, № 2, - 9-18b.
5. Azimov I. O‘zbekiston naqshu nigorlari. –T.: Adabiyot va san’at nashri. 1987, - 144 b.
6. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. –T.: O‘qituvchi, 1969.
7. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 1991, - 384 b.
8. Bulatov S.S. Ganch O‘ymakorligi. O‘quv dasturi. –T.: O‘qituvchi, 1989.-33 b.
9. Zohidov P.SH. Me’mor olami.– T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1996, 240 b.
10. Zohidov P.SH. Farg‘ona naqshi. (Xalq ustasi Saidahmad Norqo‘ziev albomidan). –T.: O‘zadabiynashr, 1960,-48 b.
11. Maksimov YU.V. To‘qishni o‘rganamiz. –T.: Mehnat, 1989, -312
12. Milliy maktab poydevorini yaratish yo‘lida. (Tuz.M.M.Rasulov). –T.: O‘zPFITI, 1991, -93 b.
13. Mirzaahmedov M.X. Materiallarga badiiy ishlov berish. –T.: O‘qituvchi, 1986.
14. Muranov .I. Umumta’lim maktablarida mehnat ta’limi mashg‘ulotlarini taxminiy rejalashtirish. –T.: U.B.M.T.M.U., 1996, -68 b.
15. SHabaratov P.P. “Miniatyura” maruzalar matni. Toshkent Nizomiy nomliy TDPU. 2000 yil.
16. Nabiev M. Rangshunoslik va ranglar texnologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1995,
17. Tasviriy san’at. (1-7 sinflar uchun dastur. Tuz. R.Xasanov). –T.: O‘zPFITI, 1994, -60 b.
18. SHabaratov P.P. Lakli miniatyura. “Kompozitsiya”. YAngi asr avlodi. 2007
19. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977, -149 b.
20. Egamov H. Bo‘yoqlar bilan ishlash. –T.: O‘qituvchi, 1981, 56 b.
21. Qosimov Q. Naqqoshlik. –T.: O‘qituvchi, 1990, -160 b.
22. Hasanov R. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi konsepsiyasi. –T.: 1995, -12 b.
23. Hasanov R. Maktablarda tasviriy san’at mashg‘ulotlarini takomillashtirish yo‘llari. –T.: O‘qituvchi, 1986, -96 b.

Elektron resurslar:

1. www. Tdpu.uz
2. www. Pedagog.uz
3. www. Ziyonet.uz
4. www. Edu.uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6.www. nbgf. Intal.uz
http://ref.ruscore.ru/rqref/part 19/item24817.html

ILOVALAR

1-ilova. O‘zbekcha inglizcha terminlar.

1. Oq rang – White [wa]
2. Qora rang – Black [blae]
3. Sariq rang – Yellow [jelav]
4. Yashil rang – Green [gri:n]
5. Zumrad – Emerald green [emarald] [gri:n]
6. Qizil rang – Red [red]
7. Alvon rang – Scarlet [sca:lat]
8. Malina rang – Mageuta [magenta]
9. Binafsha – Purple [po’pl]
10. Havo rang – Light / Pale blue [loyt/ peyl blu]
11. Ko’k rang – Drak blue [da:k] [blu:]
12. Ultramarina – Navy blue [neivi] [blu]
13. Kul rang – Grey [grei]
14. Jigarrang – Broun [brovn]
15. Olov rang – Orange [oreynj]
16. Oxra – Khaki [ka:ki]
17. Pushti – Pink [pink]
18. Qaymoq rang – Cream [kri:m]
19. Tana rang – Tan [taen]
20. Beige [beij]
21. Dengiz rang – Turquoise [tekwoiz]

2-ilova. Foto namunalar



To‘g‘rit to‘rburchak shakldagi o‘simliksimon naqsh kompozitsiyasi.

Kvadrat shakldagi naqsh kompozitsiyasi

Xovorang koloritda doira shakldagi o‘simliksimon naqsh.